2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 96 (1695), 2026-yil 13-may, chorshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON – BRAZILIYA MUNOSABATLARINI SIFAT JIHATIDAN YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 12-may kuni tashrif bilan mamlakatimizga kelgan Braziliya Federativ Respublikasi tashqi ishlar vaziri Mauro Viyeyrani qabul qildi.

Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Braziliya Prezidenti Luis Inasiu Lula da Silvaning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston — Braziliya munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko‘p qirrali hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish masalalari muhokama qilindi.

Oliy darajada tizimli muloqotni yo‘lga qo‘yish, siyosiy va parlamentlararo aloqalarni faollashtirish muhimligi qayd etildi.

O‘zaro savdo hajmini oshirish, ishbilarmonlik aloqalarini rivojlantirish, kimyo, elektrotexnika, farmatsevtika va sanoatning boshqa tarmoqlarida qo‘shma loyihalarni ilgari surishga alohida e’tibor qaratildi.

Qishloq xo‘jaligi, seleksiya, turizm, sport va boshqa yo‘nalishlardagi hamkorlik istiqbollari kun tartibida bo‘ldi.

Belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun Hukumatlararo komissiya tuzish taklif etildi.

Tomonlar xalqaro darajadagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar, bo‘lajak tadbirlar rejasini muhokama qildilar.

O‘zA

29-YEVROOSIYO IQTISODIY SAMMITI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Yevroosiyo iqtisodiy sammitining barcha ishtirokchilarini samimiy qutlash va eng ezgu tilaklarimni yo‘llashdan bag‘oyat mamnunman.

O‘tgan o‘n yillar davomida Sammit yetakchi siyosatchilar, ishbilarmon doiralar va ekspertlar hamjamiyati vakillarini birlashtirgan muhim muloqot maydoni sifatida o‘zini namoyon etdi.

Anjumanning Istanbulda o‘tkazilishi alohida ramziy ma’noga ega. Asrlar davomida bu betakror shahar Yevropa va Osiyo o‘rtasida ko‘prik bo‘lib, mintaqalararo madaniy va savdo-iqtisodiy aloqalar rivojiga beqiyos hissa qo‘shib keladi.

Bugungi kunda zamonaviy Turkiyada Prezident Rejep Tayyip Erdog‘anning “Turkiya asri” strategik g‘oyasi muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini alohida mamnuniyat bilan ta’kidlashni istar edim.

Turkiya global kun tartibidagi dolzarb muammolarni samarali hal etish yo‘lida o‘z sa’y-harakatlarini to‘liq safarbar etib, xalqaro munosabatlarning ishonchli va nufuzli ishtirokchisi sifatida ta’siri ortib bormoqda.

Prezident Erdog‘anning qat’iy intilishlari tufayli bugun O‘zbekiston va Turkiya munosabatlari keng ko‘lamli strategik sheriklik darajasiga ko‘tarildi.

Davlatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlikning eng ustuvor yo‘nalishlari Yevroosiyo iqtisodiy sammitining asosiy maqsadlari — teng huquqlilik, ishonch va o‘zaro hurmatga asoslangan keng qamrovli sheriklik va barqaror taraqqiyot tamoyillariga to‘la mos keladi.

Hurmatli anjuman qatnashchilari!

Bu galgi Sammitning asosiy mavzularidan biri sifatida suv tanqisligi va “yashil” resurslar sharoitida global mas’uliyat masalasi bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo tobora avj olayotgan iqlim xavf-xatarlariga, xususan, cho‘llanish, tuproq yemirilishi, suv tanqisligi va ekologik vaziyat yomonlashuviga duch kelmoqda.

Markaziy Osiyoda ushbu jarayonlar ayniqsa keskin namoyon bo‘lyapti: harorat oshish sur’atlari ko‘rsatkichi jahon miqyosidagi o‘rtacha me’yorlardan yuqori bo‘lib, muzliklar yemirilmoqda, tuproq degradatsiyasi kuchaymoqda.

Bunday sharoitda ekologik barqarorlikni ta’minlash Yangi O‘zbekistonni taraqqiy ettirishning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

“Yashil makon” loyihasi doirasida har yili 200 million tup daraxt ekilmoqda, Orol dengizining qurigan tubida esa ulkan yashil himoya maydonlari yaratilmoqda.

Biz rivojlanishning yashil modeliga izchillik bilan o‘tmoqdamiz, bu jarayonda zararli chiqindilar hajmini 35 foizga qisqartirib, 2035-yilga qadar ularni 50 foizgacha kamaytirishni maqsad qilib olganmiz.

Shu bilan birga, suv resurslarini samarali boshqarish, jumladan, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu esa har yili katta miqdorda suv zaxiralarini tejash imkonini beradi.

O‘zbekiston bundan buyon ham “yashil” kun tartibini faol ilgari surish hamda global ekologik xavflarni samarali hal etish yo‘llarini topishga hissa qo‘shishni faol davom ettiradi.

Shu munosabat bilan sizlarni mamlakatimizdagi xalqaro tadbirlarda, xususan, Samarqandda bo‘lib o‘tadigan Global ekologik jamg‘arma Assambleyasida va Suvni tejash bo‘yicha butunjahon forumida ishtirok etishga taklif etaman.

Ishonchim komil, birgalikda amalga oshiriladigan sa’y-harakatlarimiz xalqaro iqlim hamkorligi kun tartibiga, jumladan, BMTning iqlim o‘zgarishi bo‘yicha bo‘lajak konferensiyasiga tayyorgarlik jarayoniga amaliy hissa qo‘shadi.

Qadrli tadbir ishtirokchilari!

O‘zbekiston keng ko‘lamli hamkorlik uchun doim ochiq va kelgusida ham barqaror rivojlanishni ta’minlashga ko‘maklashishga tayyor.

Biz barcha sa’y-harakatlarimizni birlashtirgan holdagina bugungi va kelgusi avlodlar uchun farovon kelajakni ta’minlay olamiz.

Sammit qatnashchilari faoliyatiga omad va katta amaliy natijalar yor bo‘lishini tilayman.

E’tiboringiz uchun tashakkur.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

DAVLAT XIZMATLARINI KO‘RSATISHDA BYUROKRATIYANI QISQARTIRISH TIZIMDA SHAFFOFLIKNI TA’MINLAYDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev davlat xizmatlarini ko‘rsatish sohasida byurokratiyani qisqartirish chora-tadbirlari yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda davlat xizmatlarini aholi va tadbirkorlar uchun qulay, tezkor va shaffof qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Davlat xizmatlari ko‘lami 10 barobar ko‘payib, 61 milliondan oshdi. Ularning 80 foizi onlayn shaklda ko‘rsatilmoqda. Birgina 2025-yilning o‘zida tadbirkorlikka oid 2 mingdan ortiq majburiy talab bekor qilindi.

Shu bilan birga, sohada ortiqcha tartib-taomillar, qog‘ozbozlik va takrorlanuvchi talablar hali ham saqlanib qolmoqda. Bugungi kunda davlat organlarida 5 ming 650 ta funksiya, biznesni tartibga soluvchi 42 mingdan ziyod majburiy talab va 1 ming 41 ta davlat xizmati mavjud.

— Bunday ko‘p funksiya va talablar tizimni samarasiz, qimmat va ba’zan adolatsiz qilib qo‘yishi mumkin. Shu bois, faqat deregulyatsiya, raqamlashtirish va soddalashtirish — eng to‘g‘ri yo‘l, — dedi davlatimiz rahbari.

O‘zbekistonni 2030-yilga qadar “ortiqcha byurokratiyadan xoli hudud”ga aylantirish maqsadida Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda “Byurokratiyani bartaraf etish — 2030” dasturi boshlangan. Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi huzurida alohida loyiha ofisi tashkil etilgan.

Dastur doirasida davlat organlari funksiyalarini 30 foizga qisqartirish, biznesga qo‘yiladigan talablarni 20 foizgacha maqbullashtirish, elektron davlat xizmatlari ulushini 90 foizdan oshirish ko‘zda tutilgan.

Taqdimotda davlat xizmatlarini “servis davlat” modeli asosida tubdan takomillashtirish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi. Bunda asosiy e’tibor davlat xizmatini birorta ortiqcha hujjat talab qilmasdan, tez, shaffof va qulay ko‘rsatishga qaratiladi.

Xususan, 783 ta davlat xizmatiga “nol byurokratiya” tamoyilini joriy etish taklif qilindi. Bu orqali 550 turdagi davlat xizmati elektron shaklga o‘tkazilib, xizmat ko‘rsatish bosqichlari 2 karra qisqaradi. 80 turdagi xizmat proaktiv va kompozit shaklga o‘tkaziladi. Natijada aholining turli idoralarga kelish uchun sarflanadigan yiliga 35 milliard so‘mgacha transport xarajati tejaladi.

Yana 80 turdagi xizmatni ko‘rsatish muddati 2-3 karra qisqartirilib, o‘rtacha muddat 13 kundan 6 kunga tushiriladi. 10 ta xizmat to‘liq avtomatlashtiriladi. 25 ta xizmat bo‘yicha to‘lovlarning kamaytirilishi natijasida aholi ixtiyorida yiliga 851 milliard so‘mgacha mablag‘ qoladi.

Davomi 2-betda

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI XAVFSIZLIGI HAMDA CHORVACHILIK YO‘NALISHIDA IMKONIYATLAR KENGAYTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish hamda chorvachilik sohasini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Mamlakatimizda oziq-ovqat ta’minotini barqarorlashtirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va eksport qilish bo‘yicha keng imkoniyatlar yaratilgan. Bugungi kunda 4 million gektar ekin maydoni, 1,5 million tonna sig‘imga ega saqlash omborlari va 3,5 million tonna mahsulotni qayta ishlash quvvatlari aholini arzon va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, shuningdek, 4 milliard dollarlik mahsulot eksport qilish imkonini bermoqda.

O‘zbekiston 2030-yilga qadar oziq-ovqat mahsulotlari eksportini 10 milliard dollarga yetkazish, eksport geografiyasini yana 100 ta davlatga kengaytirishni maqsad qilgan.

Yig‘ilishda ushbu marralarga erishish uchun oziq-ovqat xavfsizligi tizimi xalqaro standartlarga to‘liq mos bo‘lishi zarurligi ta’kidlandi.

Hozirga qadar oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi va nazorati bilan uchta idora shug‘ullanib kelmoqda. Oqibatda sanitariya, veterinariya va karantin organlari o‘rtasida yagona ma’lumotlar bazasi shakllanmagan, ayrim vazifa va funksiyalar bir-birini takrorlamoqda. Bu esa tadbirkorlarning eksport va import jarayonlarida ortiqcha ovoragarchilikka duch kelishiga sabab bo‘lmoqda.

O‘simliklar karantini agentligida 100 ta, Veterinariya qo‘mitasida 115 ta, sanitariya-epidemiologiya tizimida 44 ta vazifa va funksiya mavjudligi, shu bilan birga, mahsulotni “yetishtirishdan iste’molchigacha” kuzatib borish tizimi to‘liq yo‘lga qo‘yilmagani ko‘rsatib o‘tildi.

Eksportda ham hal etilishi zarur bo‘lgan masalalar bor. Xususan, Yevropa Ittifoqi tomonidan mahsulotlarimizda pestitsid qoldiqlari mavjudligi bo‘yicha 25 ta ogohlantirish berilgani qayd etildi. Bu xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish uchun mahsulot xavfsizligini nazorat qilish tizimini tubdan o‘zgartirishni talab qiladi.

Amalda nazorat idoralari faqatgina yakuniy mahsulotni tekshirish bilan chegaralangani, ishlab chiqarish zanjirida oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligini kafolatlovchi xalqaro standartlarni joriy qilishga yetarlicha e’tibor qaratilmagani qayd etildi.

Davomi 2-betda

Diyen KEYTA: “O‘ZBEKISTON GENDER TENGLIKNI TA’MINLASH VA XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIKKA QARSHI KURASHISHNI MUSTAHKAMLASHDA SEZILARLI YUTUQLARGA ERISHDI”

Buxoroda bo‘lib o‘tadigan ikkinchi Osiyo xotin-qizlari forumida ishtirok etish uchun O‘zbekistonga tashrif buyurgan BMT Bosh kotibi o‘rinbosari, BMT Aholishunoslik jamg‘armasi (UNFPA) ijrochi direktori Diyen Keyta “Dunyo” axborot agentligi muxbiri savollariga javob berdi

— O‘zbekiston yoshlar ulushi yuqori bo‘lgan demografik salohiyatga ega mamlakat. Ayting-chi, O‘zbekistonning demografik dividendni amalga oshirish tajribasini qanday baholaysiz va undan barqaror foydalanishning asosiy omillari nimalardan iborat?

— O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining eng muhim demografik bosqichida turibdi. Mamlakat aholisi 38 milliondan ortiq bo‘lib, ularning 55 foizdan ortig‘ini yoshlar tashkil etadi.

Yaqin o‘n yilliklarda aholi soni yanada o‘sishi prognoz qilinmoqda. Bu demografik salohiyatni rivojlanish, innovatsiyalar va inklyuziv iqtisodiy o‘sishning kuchli dvigateliga aylantirish uchun katta imkoniyatdir.

O‘zbekiston yoshlar salohiyatiga sarmoya kiritishga jiddiy intilishini namoyish etayotgani bizni ruhlantiradi. Demografik o‘zgarishlarga bu yerda shunchaki boshqarishni talab qiladigan muammo emas, balki strategik ustunlik va milliy rivojlanish resursi sifatida qaraladi.

Mamlakatda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar kechmoqda. Jumladan, ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, sog‘liqni saqlash tizimini yaxshilash, kambag‘allikni qisqartirish, gender tenglikni ta’minlash, xotin-qizlar imkoniyatini kengaytirish borasida keng ko‘lamli sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda.

Davomi 2-betda

“Riyosiz so‘zlar” maqolasini o‘qib...

YANGI O‘ZBEKISTON FIDOKORI

Usmon Azimning “Riyosiz so‘zlar” maqolasini qayta-qayta, adashmasam, bugunning o‘zida 5-6-marta o‘qidim. Chunki shoir barchamiz boshimizdan o‘tkazgan dardu hasratlar va ertangi kunga qat’iy ishonchimizni oddiygina, xalqona tilda ifodalab beribdi. Maqolada bayon etilgan o‘tmish voqea-hodisalarining hech birimizga begona emasligi, bugungi yangilanishlarga doir ro‘y-rost, samimiy fikrlar har qanday o‘quvchi e’tiborini tortmasdan qo‘ymaydi, nazarimda.

O‘quvchilik davrimdan boshlab Shukur Xolmirzayev, Usmon Azim va Erkin A’zam asarlarini o‘qib, adabiyotga oshno bo‘lganman. Shuning uchun ham muxlis, ham gazetxon sifatida ushbu maqolada aytilgan fikrlar meni bu satrlarni yozishga undadi.

Avvalo, Usmon Azim tomonidan juda katta mardlik va dovyuraklik bilan aytilgan barcha fikrlarni olqishlayman. Shunisi ahamiyatliki, bosib o‘tgan yo‘llarimiz va ko‘rguliklarimizning barchasi shoir tomonidan birma-bir, bosqichma-bosqich va to‘laligicha yoritilgan.

Maqolada so‘nggi yillardagi barqaror rivojlanish, bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlar va xalqimizning buyuk kelajagi yo‘lidagi islohotlar katta iftixor bilan mubolag‘asiz bayon qilingan.

Shoirning o‘zi aytganidek, “Yo‘q, xushomad qilish niyatim yo‘q. Nimaga xushomad qilaman? Yoshim bir joyga borgan bo‘lsa, mukofotu unvonlarni ham hech kimga likillamay olgan bo‘lsam...”.

Shoir davom etadi: **“Bu olamshumul zafarlarning ortida bir kishining, ha, bir kishining — O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning fidokorligi turibdi.**

Oz emas, ko‘p emas, yangi O‘zbekistonni qurmoqchi bo‘lgan shu azamat insonning misli ko‘rilmagan fidokorligi!”.

Usmon Azim mard va jasur shoir, to‘g‘riso‘z va dangal inson. U qayd etganidek, Termiz mamlakatimizdagi eng yashil shaharlardan biri bo‘lib boryapti, ulkan bunyodkorlik maydoni va yurtimiz janubidagi ilm-fan markaziga aylangani ham ayni haqiqat.

O‘z navbatida, sevimli shoirimiz Usmon Azim fikrlariga qo‘shimcha ravishda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Prezidentlik faoliyatining dastlabki pallalaridan boshlab olimlar nufuzini, oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilarining ish haqini oshirishga, ustozlar, o‘qituvchi-muallimlarning jamiyatda tutgan o‘rni, mavqeini, maqomini yuksaltirishga alohida e’tibor qaratayotganini ta’kidlamoqchiman.

Biz, olimlar bugungi islohotlar samarasi yangi O‘zbekistonni dunyoning eng taraqqiy etgan davlatlari qatoriga olib chiqishiga, vatanimizning ertangi kuni yanada porloq, tinchligi va taraqqiyot yo‘li barqaror bo‘lishiga juda-juda ishonamiz. Zero, Usmon Azim aytganidek, **“Vatanimizning bugunini va ertasini yaratishga vatanparvar, xalqparvar, ishbilarmon va adolatli inson bel bog‘lagan!”.**

Hayit TO‘RAYEV,
kimyo fanlari doktori, professor

O‘zbekiston tajribasi katta umid uyg‘otadi. Mamlakat demografik jarayonlarni barqaror rivojlanish omiliga aylantirish uchun ham sezilarli demografik salohiyatga, ham islohotlarning zarur dinamikasiga ega.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 13-may, 96-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

DAVLAT XIZMATLARINI KO‘RSATISHDA BYUROKRATIYANI QISQARTIRISH TIZIMDA SHAFFOFLIKNI TA’MINLAYDI

Boshlanishi 1-betda

Shuningdek, 10 ta xizmatni xususiy sektorga o‘tkazish, 15 ta ma’lumot va hujjatni raqamlashtirish belgilanmoqda. Bu orqali 270 dan ortiq xizmatda ushbu ma’lumot va hujjatlarni qayta so‘rash amaliyoti bekor qilinadi.

Majburiy talablarni qayta ko‘rib chiqish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Masalan, bozorlar faoliyatiga doir 20 ga yaqin hujjatda 500 dan ziyod talab tarqoq holda yuritilmoqda. Ularni tizimlashtirish orqali talablarning 30 foizdan ortig‘ini maqbullashtirish mumkinligi qayd etildi.

Sanitariya talablariga muvofiqlik dalolatnomasi va ko‘rikdan o‘tadigan xodimlar ro‘yxatini elektron tizim orqali shakllantirish imkoniyati ham ko‘rsatib o‘tildi. Bu orqali yiliga 1 milliard so‘m byudjet mablag‘ini tejash, xodimlarning 24 ming ish soatini amaliy faoliyatga yo‘naltirish mumkin bo‘ladi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, ma’muriy yukni qisqartirish iqtisodiyotga yiliga 1,5 milliard dollar to‘g‘ridan to‘g‘ri samara beradi. Tartibga solish sifatini yaxshilash qo‘shimcha 800 million dollar xorijiy investitsiya jalb etishga xizmat qiladi. Davlat va biznes o‘rtasidagi jarayonlarni soddalashtirish hisobiga mehnat unumdorligi yiliga 750 million dollarga oshadi. Umumiy hisobda byurokratiyani qisqartirish choralari 2026-2030-yillarda iqtisodiyotni qo‘shimcha 13 milliard dollarga o‘stirish imkonini beradi.

Taqdimotda reestr.gov.uz yagona platformasi orqali davlat funksiyalari, majburiy talablar va davlat xizmatlari reyestrlarini yuritish, idoralar faoliyatini “Bureaucracy radar” asosida baholash, sun’iy intellekt orqali tahlil qilish va “Biznes kalkulyator” orqali tadbirkorlar xarajatini hisoblash tizimini joriy etish taklif qilindi.

Prezidentimiz davlat xizmatlari inson qadri, tadbirkorlar uchun qulay muhit va davlat boshqaruvi samaradorligi bilan bevosita bog‘liq ekanini ta’kidladi. Har bir vazirlik va idora o‘z funksiyalarini qayta ko‘rib chiqishi, ortiqcha talab va hujjatlarni bekor qilishi, xizmatlarni raqamlashtirishni jadallashtirishi zarurligi qayd etildi.

Mutasaddilarga byurokratiyani bartaraf etish bo‘yicha qaror loyihasini kiritish, unda har bir vazirlik va idora kesimida raqamlashtirish, davlat xizmatlarini soddalashtirish hamda xususiy sektor ulushini oshirish bo‘yicha aniq rejalarni belgilash topshirildi.

Shuningdek, sohada ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va barcha idoralar faoliyatida “nol byurokratiya” tamoyilini izchil joriy qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

O‘zA

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI XAVFSIZLIGI HAMDA CHORVACHILIK YO‘NALISHIDA IMKONIYATLAR KENGAYTIRILADI

Boshlanishi 1-betda

Shu munosabat bilan oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi sohasini chuqur isloh qilish va xalqaro talablarga mos yagona markazlashgan tizim yaratilishi belgilandi.

Unga muvofiq, “daladan dasturxongacha” tamoyili asosida barcha nazorat jarayonlarini qamrab oladigan Oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligi qo‘mitasi tashkil etiladi. U O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi va Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishi negizida shakllantiriladi.

Yangi tizimda eskirgan, tadbirkor faoliyatiga to‘siq bo‘layotgan tekshiruvlardan voz kechiladi. Oziq-ovqat mahsulotlarini majburiy sertifikatlash bekor qilinib, uning o‘rniga xavfga asoslangan nazorat va tekshiruv tartibi joriy etiladi.

Bugungi kunda respublikadagi 80 mingta obyektdan faqat 1,6 mingtasida, ya’ni 2 foizida bunday tartib qo‘llanilmoqda. Endilikda xavfli mahsulotlar to‘g‘risida tezkor xabar berish va ularni qaytarib olish bo‘yicha elektron tizim yaratiladi.

2029-yil 1-yanvardan boshlab meva-sabzavot eksporti faqat agrologistika markazlari orqali amalga oshiriladi. Eksport salohiyati yuqori yirik oziq-ovqat korxonalarini xalqaro xatarlar tahlili standarti va Alimentarius kodeksi talablariga o‘tkazish bo‘yicha dastur ishlab chiqiladi. Ushbu ko‘rsatkich 2028-yilgacha 20 foizga, 2030-yilgacha 60 foizga, 2032-yilgacha esa 100 foizga yetkaziladi.

Meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan 20 ta tumanda ichki fitosanitariya sertifikatini rasmiylashtirishga ko‘maklashuvchi jamoatchi inspektorlar faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Bundan buyon meva-sabzavot eksporti statistikasi mahsulot qaysi hududda yetishtirilgan bo‘lsa, o‘sha hududda hisobga olinadi.

2027-yildan boshlab laboratoriya tekshiruvi, hayvonlarni emlash, dezinfeksiya va identifikatsiya qilish kabi 6 ta davlat funksiyasi xususiy sektorga beriladi. Viloyat hokimlariga yil yakunigacha ushbu xizmatlar bo‘yicha kamida 2 tadan xususiy laboratoriya va veterinariya klinikasini tashkil etish topshirildi.

Har bir mahsulot bo‘yicha onlayn kuzatish tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Fermer va dehqonlar uchun “Agro ko‘makchi” mobil ilovasida elektron “Dala daftari” tizimi joriy etiladi. Mazkur tizim orqali sun’iy intellekt zararkunandalar tarqalishini oldindan bashorat qilib, dehqonlarga zarur tavsiyalar beradi.

Faol va halol ishlayotgan fermerlar reytingi yuritiladi va ularga qo‘shimcha imtiyozlar beriladi. 2027-yil 1-martgacha oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo‘yicha yagona avtomatlashgan axborot platformasi ishga tushiriladi. U chegaradagi “Yagona darcha” tizimi bilan integratsiya qilinib, eksportchilar ortiqcha byurokratik jarayonlardan ozod etiladi.

Yangi tizim orqali importda nazorat vaqti 9 kundan 2 kunga, eksportda esa 3 kundan 1 kungacha qisqartirilishi belgilandi. Buning hisobiga tadbirkorlarning mahsulotni omborda saqlash xarajatlari 70 milliard so‘mga tejaladi.

Yig‘ilishda chorvachilik va yaylov xo‘jaligini rivojlantirish masalalari ham muhokama qilindi.

Tahlillarga ko‘ra, keyingi 25 yilda dunyo mamlakatlarining 42 foizida qoramollar soni 12 foizga qisqargan. Buning asosiy sabablari qimmat ozuqa, qurg‘oqchilik, ekologik omillar, yuqori foiz stavkalari va daromad kamayishi bilan bog‘liq. Natijada jahon bozorida go‘shtning o‘rtacha narxi rekord darajaga yetgan.

O‘zbekistonda chorvachilikni rivojlantirish uchun katta imkoniyat bor. Mamlakatimizda 16 million gektar yaylov mavjud, biroq bu salohiyatning atigi 10 foizidan foydalanilmoqda.

Shu bois, Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzurida Chorvachilik va yaylov xo‘jaligini rivojlantirish agentligi tashkil etiladi. U Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi negizida faoliyat boshlaydi.

Yangi agentlik oldiga qoramollar sonini 16,5 milliontaga, qo‘y va echkilar sonini 30 milliontaga, parrandalar sonini 141 milliontaga yetkazish vazifasi qo‘yildi. Shuningdek, go‘sht va sutni qayta ishlash darajasini 50 foizga, nasldor qoramollar ulushini 90 foizga yetkazish, ozuqabop ekin maydonlarini esa 1,5 barobar ko‘paytirish belgilandi.

Ozuqa bazasini kengaytirish va naslchilikni yaxshilash maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va har bir viloyatdan 1 tadan tuman chorvachilikka ixtisoslashtiriladi.

Ushbu tumanlarda paxta va g‘alla yerlarining 50 foiziga ozuqabop ekinlar ekishga ruxsat beriladi, buning uchun 10 foizli imtiyozli kreditlar ajratiladi. Barcha fermer xo‘jaliklariga ijara yerlarining 20 sotix qismida ortiqcha byurokratiyasiz yengil konstruksiyali binolar, ozuqa omborlari va silos o‘ralari qurishga ruxsat beriladi.

Yil yakuniga qadar kamida 10 gektar yeri bor 28 ming 746 ta fermer xo‘jaligi yerida 2 million bosh qoramol boqishni tashkil etish vazifasi qo‘yildi.

Chorvachilikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralari ham belgilandi. 1-iyundan boshlab tijorat banklari yillik 10 foiz stavkada, 4 yil imtiyozli davr bilan 10 yil muddatga kreditlar ajratadi. Nasldor chorvani import qiluvchilar 2029-yilgacha qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi.

Banklarga yillik 6 foiz stavkada 1 trillion so‘m va 50 million dollar resurs joylashtiriladi. Ushbu resurslar hisobidan joriy yilda 5,5 trillion so‘mlik 1,5 mingta loyihani ishga tushirish, 25 mingta ish o‘rni yaratish va qoramollar sonini 400 mingtaga oshirish rejalashtirilgan.

Kadrlar tayyorlash va naslli chorvani ko‘paytirish bo‘yicha ham yangi dastur ishga tushiriladi. 1-iyundan yetakchi agrar oliygohlarda sun’iy urug‘lantirish bo‘yicha 10 kunlik o‘quv kurslari tashkil etiladi. Har yili kamida 1 ming mutaxassis tayyorlanib, ular zarur uskunalar bilan bepul ta’minlanadi.

Xonadonlarda sun’iy urug‘lantirilgan har bir nasldor buzoq uchun 500 ming so‘mdan hamda embrionlar ko‘chirib o‘tkazilganda 700 ming so‘mdan subsidiya to‘lanadi. Bu maqsadlar uchun qo‘shimcha 50 milliard so‘m ajratiladi.

Yig‘ilishda mutasaddilarning hisobotlari, tadbirkor va fermerlarning takliflari tinglandi. Yangi tizimni joylarda samarali tashkil etish, tadbirkorlar va fermerlarga amaliy ko‘mak berish, chorvachilikda ozuqa bazasi, naslchilik, qayta ishlash va eksport imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha aniq topshiriqlar berildi.

O‘zA

Diyen KEYTA: “O‘ZBEKISTON GENDER TENGLIKNI TA’MINLASH VA XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIKKA QARSHI KURASHISHNI MUSTAHKAMLASHDA SEZILARLI YUTUQLARGA ERISHDI”

Boshlanishi 1-betda

Qilingan mehnat allaqachon natija bera boshlagan. Eng muhim yutuqlar orasida kambag‘allik darajasining 8,9 foizdan 5,8 foizga pasayishi, shuningdek, so‘nggi o‘n yil ichida oliy ta’lim bilan qamrovning qariyb besh baravar — 9 foizdan 42 foizga o‘sishi bor.

UNFPA nuqtayi nazaridan asosiy xulosa shundan iboratki, demografik dividend o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Unga erishish uchun yoshlarning ta’limi, ko‘nikmalari, salomatligi va bandligiga barqaror investitsiyalar zarur.

Reproduktiv salomatlik sohasida mustaqil ravishda asosli qarorlar qabul qilish imkoniyati ta’limni davom ettirish, iqtisodiy faollik va o‘zini namoyon qilish uchun kengroq imkoniyatlar bilan bevosita bog‘liq. Bunday imkoniyatlarni kengaytirish nafaqat inson huquqlari masalasi, balki inklyuziv iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanishning ham eng muhim omilidir.

Yana bir asosiy omil — qaror qabul qilish uchun sifatli ma’lumotlar mavjudligi. Aynan ma’lumotlar demografik salohiyatni rivojlanishning real natijalariga aylantirish uchun asos bo‘ladi. 2026-yilda mustaqil O‘zbekiston tarixida ilk bor aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbiri muvaffaqiyatli o‘tkazildi. O‘zbekiston uchun bu tarixiy voqea bo‘ldi.

Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirlaridan keyin ma’lumotlar qayta ishlanib, tahlil qilingandan so‘ng ta’lim tizimi, sog‘liqni saqlash, ish o‘rinlari, uy-joy, infratuzilma va boshqa yo‘nalishlarda aniq raqamlar chiqadi. Bu raqamlar ijtimoiy himoya bo‘yicha aynan odamlar yashaydigan, ehtiyojlar eng yuqori bo‘lgan va kelajakdagi imkoniyatlar shakllanadigan joylarga keng ko‘lamda sarmoya kiritishga yordam beradi.

O‘zbekiston tajribasi katta umid uyg‘otadi. Mamlakat demografik jarayonlarni barqaror rivojlanish omiliga aylantirish uchun ham sezilarli demografik salohiyatga, ham islohotlarning zarur dinamikasiga ega. Bugungi kunda har bir yosh, ayniqsa, xotin-qizlarning o‘qishi, ishlashi, hayotiy qarorlar qabul qilishi borasida maqsadli ishlar bajarilmoqda. Eng muhimi, mamlakat kelajagini shakllantirishda yoshlar faol va to‘laqonli ishtirok etmoqda.

— So‘nggi yillarda UNFPA ko‘magida O‘zbekistonda onalik va reproduktiv salomatlikni muhofaza qilish sohasida keng ko‘lamli loyihalar ro‘yobga chiqarildi. Sizningcha, bugungi kunda O‘zbekistondagi qanday yondashuvlar va innovatsiyalar bunday xizmatlar sifatini va ulardan foydalanish imkoniyatini, ayniqsa, hududlardagi ayollar uchun eng samarali tarzda oshirish imkonini beradi?

— O‘zbekiston onalik va reproduktiv salomatlikni muhofaza qilishni asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylantirdi va natijalar allaqachon ko‘zga tashlanmoqda. Onalar o‘limi 2010-yildagi har 100 ming tirik tug‘ilgan chaqaloqqa to‘g‘ri keladigan 21 holatdan 2025-yilda 10,9 holatgacha kamaydi. Bugungi kunda deyarli barcha tug‘uruqlar malakali tibbiyot xodimlari ishtirokida kechmoqda. Bu, ayniqsa, har yili bir millionga yaqin bola tug‘iladigan mamlakat uchun juda muhim.

O‘zbekiston alohida chora-tadbirlarga emas, balki milliy standartlar va tibbiyot kadrlarini tayyorlashdan tortib, uskunalar bilan jihozlash, raqamlashtirish, oilani rejalashtirish va onkologik kasalliklar skriningigacha bo‘lgan butun tizimni mustahkamlashga e’tibor qaratmoqda.

Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda UNFPA onalikni muhofaza qilish va perinatal yordam tizimini modernizatsiyalash, jumladan, klinik standartlarni yangilash, shoshilinch akusherlik yordamini takomillashtirish va mamlakat tug‘uruq muassasasiga hayotiy zarur uskunalarni yetkazib berishni qo‘llab-quvvatladi. Jamg‘arma dasturlari doirasida 18 mingdan ziyod tibbiyot xodimining malakasi oshirildi. Mamlakat bo‘ylab 40 mingdan ortiq mutaxassis uchun yangilangan akusherlik va perinatal protokollar joriy etildi.

Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish, xususan, Milliy raqamli sog‘liqni saqlash platformasi muhim ahamiyat kasb etadi. UNFPA qo‘llab-quvvatlayotgan islohotlar, jumladan, dori-darmon zaxiralarini boshqarishning yangi tizimlari ehtiyojlarni avvaldan aniqlashga yordam beradi. Bu esa dori-darmon yetishmovchiligining oldini olish va ayniqsa, ayollar uchun zarur tibbiy mahsulotlarni vaqtida yetkazib berish imkonini yaratadi. Shuningdek, teletibbiyot xizmatlari orqali olis va borish qiyin bo‘lgan hududlarda yashovchi ayollar uchun tug‘uruqdan oldingi ko‘riklar va ona salomatligi bo‘yicha maslahatlarni uyiga yaqinlashtirish mumkin.

Oilani rejalashtirish eng muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. 2023-yildan buyon UNFPA O‘zbekiston hukumati bilan hamkorlik doirasida butun mamlakat bo‘ylab zamonaviy kontratsepsiya vositalaridan foydalanishni kengaytirishga ko‘maklashmoqda. Bu degani, tobora ko‘proq ayollar va oilalar o‘z salomatligi va kelajagi haqida ongli qarorlar qabul qilish imkoniga ega bo‘lmoqda.

2024-yilda bachadon bo‘yni va ko‘krak bezi saratoniga qarshi kurashni kuchaytirish bo‘yicha qabul qilingan muhim qaror alohida e’tiborga loyiq. Bu ayollar reproduktiv salomatligini davlat siyosati darajasiga ko‘tarishda sezilarli yutuq bo‘ldi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Ijtimoiy himoya milliy agentligi rahbarligida ijtimoiy, huquqiy, psixologik, tibbiy va himoya xizmatlarini birlashtirgan, muvofiqlashtirilgan hamda jabrlanuvchilar manfaatlariga yo‘naltirilgan tizim shakllantirilmoqda.

UNFPA mamlakatda qayta yo‘naltirish mexanizmlarini takomillashtirish, javob berishning standart tartib-qoidalarini joriy etish, idoralararo hamkorlikni kuchaytirish hamda oldingi safda ishlayotgan mutaxassislar malakasini oshirish bo‘yicha sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlaydi va yuqori baholaydi. Inklyuzivlikka e’tibor ortib borayotgani, xususan, nogironligi bo‘lgan ayollar va qizlarning himoya va qo‘llab-quvvatlash xizmatlaridan to‘siqsiz foydalanishini ta’minlash yo‘nalishidagi ishlar ham olqishlanadi.

Yana bir muhim yo‘nalish — profilaktika. O‘zbekistonda zo‘ravonlikka barham berish uchun zararli ijtimoiy me’yorlar va stereotiplarni o‘zgartirish zarurligi tobora kengroq anglab yetilmoqda.

Birgalikdagi ishlar doirasida mahallalar, yoshlar, erkaklar va o‘g‘il bolalar, diniy yetakchilar, parlament a’zolari hamda fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etish yanada kuchaytirilmoqda. Bu juda muhim, chunki ayollarga nisbatan zo‘ravonlik faqat individual xatti-harakatlar bilan emas, balki hokimiyatning tengsiz munosabatlari va kamsituvchi ijtimoiy qarashlar bilan ham bog‘liq bo‘lib, ularni birgalikda bartaraf etish zarur.

> **“ UNFPA O‘zbekiston hukumati va hamkorlari bilan birgalikda ushbu muhim forumning hammuallifi ekanidan faxrlanadi va mamlakatning bunday ulkan va kelajakka yo‘naltirilgan mintaqaviy va xalqaro muloqotni yaratish borasidagi sa’y-harakatlarini yuqori baholaydi.**

Hozirgi kunda birlamchi tibbiy yordam tizimida profilaktika, erta aniqlash va skrining xizmatlari kengaytirilmoqda. Bu esa ko‘plab kasalliklarni vaqtida aniqlash va davolash imkonini oshirmoqda. Ushbu choralar inson hayotini saqlab qolish, ayollar salomatligini yaxshilash hamda mamlakatning barcha hududlarida sifatli tibbiy xizmatdan teng foydalanishni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston tajribasi ko‘rsatadiki, siyosiy iroda insonlar, texnologiyalar, ma’lumot, bilim va hamkorlikka tizimli investitsiyalar bilan qo‘llab-quvvatlangandagina haqiqiy taraqqiyotga erishish mumkin.

Jamg‘armamiz har bir ayol, qayerda yashashidan qat’i nazar, nafaqat onalik va reproduktiv salomatlik sohasida sifatli xizmatlardan foydalanish, balki o‘z salomatligi bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish imkoniga ega bo‘lishi uchun ushbu sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlashdan faxrlanadi. UNFPA uchun ayollar va qizlarning huquq hamda tanlov erkinligi har doim muhim bo‘lib kelgan.

— O‘zbekistonda gender tenglik va xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashish masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu borada erishilgan natijalarni qanday baholaysiz?

— O‘zbekiston gender tenglikni ta’minlash va xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashish tizimini mustahkamlashda sezilarli yutuqlarga erishdi. Bu masalalarga bugungi kunda nafaqat ijtimoiy muammo, balki barqaror rivojlanish, inson huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy himoya va milliy taraqqiyotning asosiy elementi sifatida qaralishi, ayniqsa, dolzarbdir.

Eng muhim bosqichlardan biri oiladagi zo‘ravonlikni jinoiy javobgarlikka tortish hamda jabrlanuvchilarni himoyalashni kuchaytirishga qaratilgan qonun hujjatlari qabul qilinishi bo‘ldi. Bu islohotlar bosqichma-bosqich amaliyotga kirib borib, samarali mexanizmlar va xizmatlar orqali hayotga tatbiq etilmoqda.

Albatta, hali qilinishi kerak bo‘lgan ishlar ko‘p. Ayniqsa, moliyalashtirish, amaliy ijro, xizmatlar sifati va uzoq muddatli profilaktika sohalarida. Biroq yo‘nalish aniq: O‘zbekiston har bir ayol va qiz zo‘ravonlik va kamsitishsiz yashaydigan, teng imkoniyatlarga ega bo‘ladigan hamda o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqara oladigan jamiyatning mustahkam asoslarini yaratmoqda.

— Buxoroda ikkinchi Osiyo xotin-qizlari forumida ishtirok etasiz. Xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini ilgari surishda ushbu forumning ahamiyatini qanday baholaysiz va bu borada qanaqa amaliy natijalarga erishish mumkin?

— Buxoroda o‘tkazilayotgan forum shunchaki mintaqaviy tadbir emas. Bu kelajakdagi ayollar yetakchiligini shakllantirish, Osiyo va undan tashqarida ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish uchun muhim xalqaro maydondir.

Forum asta-sekin ayollar huquqlari va inklyuziv rivojlanish masalalari bo‘yicha doimiy hamkorlik platformasiga aylanib borayotgani bu sohadagi taraqqiyotni jadallashtirish uchun tajriba va g‘oyalar almashish muhimligini ko‘rsatadi.

Tadbir g‘oyat muhim davrda o‘tmoqda. Bugungi kunda Osiyo mamlakatlari keng ko‘lamli demografik, iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Bunday sharoitda ayollar va qizlarga sarmoya kiritish nafaqat to‘g‘ri qaror, balki barqaror rivojlanish, jamiyatlar barqarorligi va tinchlikka eng samarali sarmoyalardan biridir.

Men forumni muloqot aniq harakatlarga aylana oladigan makon deb bilaman. U siyosiy yetakchilar, parlament a’zolari, ekspertlar, xalqaro hamkorlar, fuqarolik jamiyati vakillari, yoshlar va yetakchi ayollarni qarorlar almashish, hamkorlikni shakllantirish va amaliy majburiyatlarni ilgari surish uchun birlashtiradi.

UNFPA uchun ushbu tadbir alohida ahamiyatga ega. Chunki biz demografik jarayonlar, sog‘liqni saqlash va gender tenglik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalalarida global tajribaga egamiz. Biz mamlakatlarga ma’lumotlarga asoslangan siyosatni ishlab chiqishda va ayollar hamda yoshlar imkoniyatlarini kengaytiruvchi tizimlarni mustahkamlashda yordam beramiz. Forumda biz ushbu ustuvor yo‘nalishlarni odamlar hayotini yaxshilaydigan amaliy yechimlarga aylantirish bo‘yicha muhokamalarda ishtirok etmoqdamiz.

Xotin-qizlar hamon mintaqada ham, butun dunyoda ham inson kapitalining amalga oshirilmagan eng yirik manbai bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, gender tenglik shunchaki maqsad emas, balki o‘sish, barqarorlik va umumiy farovonlik uchun imkoniyat ochadigan demografik dividend hisoblanadi.

Xotin-qizlarga sarmoya kiritish har qanday davlat qilishi kerak bo‘lgan eng oqilona sarmoyadir. Ayollar huquqlari va tanlovi rivojlanish siyosatining markaziy elementiga aylansa, jamiyatlar yanada barqaror va farovon bo‘ladi.

Men forumning yangi dolzarb masalalarga e’tibor qaratayotganini olqishlayman. Jumladan, ayollarning innovatsiyalar, texnologiyalar va sun’iy intellekt sohasidagi ishtiroki, shu bilan birga, raqamli texnologiyalar orqali ayollar va qizlarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari ortib borayotgani muhim mavzu sifatida ko‘tarilmoqda. Jamiyatlarimiz tobora raqamlashib borayotgan bir paytda ayollar va qizlarning internetdagi huquqlari va xavfsizligini ta’minlash ustuvor vazifalardan biri bo‘lishi kerak.

Umid qilamanki, tadbirning amaliy natijalari mintaqaviy sheriklikni mustahkamlash, yangi siyosiy majburiyatlarni qabul qilish, ayollar va qizlarga investitsiyalarni ko‘paytirish, aniq qo‘shma tashabbuslarni ishga tushirishdan iborat bo‘ladi.

Ishonchim komilki, forum yakunlari bo‘yicha qabul qilinadigan Buxoro deklaratsiyasi gender tenglik faqat tor sohaviy masala emas, balki milliy taraqqiyot, inson kapitali va jamiyat barqarorligining muhim strategik omili ekanini yaqqol ko‘rsatadi.

UNFPA O‘zbekiston hukumati va hamkorlari bilan birgalikda ushbu muhim forumning hammuallifi ekanidan faxrlanadi va mamlakatning bunday ulkan va kelajakka yo‘naltirilgan mintaqaviy va xalqaro muloqotni yaratish borasidagi sa’y-harakatlarini yuqori baholaydi.

— O‘zbekistonga tashrifingizdan qanday natijalar kutyapsiz va kelajakda hamkorlikning yana qanaqa yo‘nalishlarini rivojlantirish mumkin?

— Mamlakatingizga tashrifim O‘zbekiston va UNFPA o‘rtasidagi hamkorlik nafaqat ko‘lami, balki strategik maqsadlar darajasida ham jadal rivojlanayotgan muhim bir davrga to‘g‘ri kelmoqda. Men O‘zbekistondagi islohotlarni qo‘llab-quvvatlayman va hamkorligimizni yanada mustahkamlashga harakat qilaman.

UNFPA O‘zbekistonda 1993-yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda va bu yil o‘zining oltinchi mamlakat dasturini ishga tushirdi. Ushbu dastur yuqori maqsadlari, inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalari va mamlakatning milliy ustuvor yo‘nalishlari bilan to‘liq ajralib turadi.

Mening asosiy umidim O‘zbekistondagi islohotlar odamlar, ayniqsa, ayollar, yoshlar, oilalar va mahalliy hamjamiyatlar hayotini qanday yaxshilayotganini bevosita kuzatishdir. Shu bilan birga, kelgusi yillarda UNFPA mamlakat ustuvor yo‘nalishlarini qanday samarali qo‘llab-quvvatlashi mumkinligini yaxshiroq anglash uchun davlat idoralari, parlament a’zolari, fuqarolik jamiyati vakillari, yoshlar hamda xalqaro hamkorlar bilan uchrashishni intizorlik bilan kutaman.

O‘zbekiston hozir taraqqiyotining muhim bosqichiga kirmoqda. Mamlakat inson kapitaliga sarmoya kiritmoqda, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlamoqda, ayollar imkoniyatlarini kengaytirmoqda, sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilmoqda, aholini ro‘yxatga olishga oid tarixiy jarayonni yakunlamoqda va demografik barqarorlik masalalarini davlat siyosatining markaziga qo‘ymoqda. Shu sohalarda UNFPAning global tajribasi ma’lumotlarga asoslangan siyosat, inklyuziv rivojlanish va uzoq muddatli barqaror rejalashtirishni qo‘llab-quvvatlash orqali sezilarli foyda keltirishi mumkin.

Tashrifimning asosiy g‘oyasi aniq: UNFPA O‘zbekistonning ishonchli hamkori sifatida faxrlanadi. Biz islohotlarni qo‘llab-quvvatlash, inson kapitaliga sarmoya kiritish va barcha uchun sog‘lom, teng huquqli hamda barqaror kelajakni barpo etish yo‘lida hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga intilamiz.

“Dunyo” AA

“Xitoy — Markaziy Osiyo” inson huquqlarini rivojlantirish forumining “Toshkent tashabbusi” deb nomlangan yakuniy hujjati qabul qilinishi kutilmoqda. Ushbu hujjatda o‘z aksini topadigan tashabbuslar Xitoy va mintaqamiz davlatlarining inson huquqlari sohasidagi hamkorlik munosabatlarini yangi bosqichga ko‘tarishi shubhasiz.

Joriy yil 14-may kuni Toshkent shahrida Xitoy, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekistonning inson huquqlari sohasidagi ekspert, ilmiy, davlat va ishbilarmon doiralari vakillari ishtirokida “Xitoy — Markaziy Osiyo” inson huquqlarini rivojlantirish bo‘yicha to‘rtinchi forumi bo‘lib o‘tadi. Ushbu anjuman O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlash uchun butun mamlakatimizda tayyorgarlik ko‘rilayotgan qizg‘in davrga to‘g‘ri kelganida ham o‘ziga xos ramziy ma’no bor.

Mintaqa xalqlarini ming yillik qardoshlik va yaxshi qo‘shnichilik, quda-andachilik rishtalari bog‘lab turadi. Xalqlarimiz hamisha bir-biriga yelkadosh va hamjihat bo‘lib yashab kelgan. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, bizni yagona tarix, yagona din, umumiy madaniyat va an’analar birlashtiradi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarini o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi. Bugun ushbu uchrashuvlar mintaqada o‘zaro hamjihatlik va hurmat, yaqin qo‘shnichilik va strategik sheriklik ruhidagi mutlaqo yangi siyosiy muhitni mustahkamlash, muhim hayotiy masalalarni hal qilish va ko‘p qirrali hamkorligimizni sifat jihatidan yangi mazmun bilan to‘ldirish borasida samarali platformaga aylandi.

YUQORI SIFATLI RIVOJLANISH ORQALI INSON HUQUQLARI SOHASIDAGI TARAQQIYOTNI BIRGALIKDA ILGARI SURISH

“Xitoy — Markaziy Osiyo” inson huquqlarini rivojlantirish bo‘yicha to‘rtinchi forumi haqida mulohazalar

Akmal SAIDOV,
Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori, akademik

> **Xitoy keyingi yillarda qashshoq va qoloq mamlakatdan jahon iqtisodiy o‘sishini ta’minlaydigan beqiyos kuch-qudrat manbaiga aylandi. Bunda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘lida qo‘lga kiritgan olamshumul natijalari katta ahamiyat kasb etdi va bugun ayni samarador omillar butun dunyoning diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb etmoqda.**

Avvalo, mustaqillik tufayli O‘zbekiston barcha davlat bilan teng huquqli va o‘zaro manfaatli hamkorlik qilish layoqatiga ega bo‘ldi. Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo‘yilganidek, “Insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadidir”.

O‘zbekiston ana shu konstitutsiyaviy normani ro‘yobga chiqarish yo‘lida turli nufuzli xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan yaqin hamkorlik munosabatlarini yo‘lga qo‘ygan. Xitoy Xalq Respublikasi va mintaqamiz mamlakatlari bilan hamjihatlikda o‘tkazib kelinayotgan “Xitoy — Markaziy Osiyo” inson huquqlarini rivojlantirish bo‘yicha an’anaviy forumi bunga yaqqol amaliy misoldir.

Bu galgi forum “Yuqori sifatli rivojlanish orqali inson huquqlari sohasidagi taraqqiyotni birgalikda ilgari surish” mavzusiga bag‘ishlanadi. Ayni mavzuda batafsil fikr yuritishdan oldin O‘zbekiston bilan Xitoy va mintaqamiz mamlakatlari o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari holati haqida muxtasar to‘xtalish o‘rinli deb o‘ylayman.

O‘zbekiston — Xitoy: inson huquqlari sohasida hamkorlik

Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, bugun dunyo nafaqat turli tahdid va xatarlar, balki ulkan imkoniyatlarni ham o‘zida mujassam etgan global o‘zgarishlar davriga qadam qo‘ydi. Bu olamshumul yangilanishlar pallasi aynan O‘zbekiston — Xitoy munosabatlarida yangi davr boshlangan tarixiy qulay sharoitga to‘g‘ri kelgani alohida diqqatni tortadi.

Gap shundaki, 2025-yil 30-avgust – 3-sentabr kunlari Prezidentimiz rasmiy tashrif bilan Xitoyda bo‘ldi. Davlatimiz rahbari ushbu tashrifi doirasida, birinchidan, 31-avgust – 1-sentabr kunlari Tyanszin shahrida o‘tkazilgan Shanxay hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlari kengashi yig‘ilishida ishtirok etdi. Ikkinchidan, 2-sentabr kuni Pekinda XXR Raisi Si Szinpin bilan yuzma-yuz uchrashib, strategik sheriklikni chuqurlashtirish masalalarini muhokama qildi. Uchinchidan, 3-sentabr kuni Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabaning 80 yilligiga bag‘ishlangan tantanalarda qatnashdi.

O‘z navbatida, Prezidentimizning 2024-yil yanvar oyida Xitoyga davlat tashrifi yakunlari bo‘yicha har ikki davlat rahbarlari tashabbusi bilan mamlakatlarimizning o‘zaro munosabatlari yangi davrda barcha sharoitda har tomonlama strategik sheriklikka ko‘tarilishi uchun ulkan shijoat baxsh etildi. Davlatimiz rahbarining Pekin va Shenchjen shaharlaridagi muzokaralari yakunida 2023-2027-yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturi qabul qilindi va 25 milliard dollardan ortiq qiymatdagi kelishuvlarga erishildi.

Hozir O‘zbekiston bilan Xitoy buyuk sivilizatsiyaning qadimiy o‘lkalari sifatida ikki tomonlama hamkorlikning tarixiy yuksalish pallasida turibdi. Bunda, bir tomondan, Xitoy o‘zining modernizatsiyalashtirish uslubini tobora jadallashtirayotgani, boshqa tomondan, mamlakatimiz “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini barcha sohaga izchil tatbiq qilayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro hamkorligimiz samarasiga bir misol: BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida O‘zbekiston va Xitoy tomonidan Xalqaro sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqot kunini belgilash bo‘yicha taklif qilingan rezolyutsiya bir ovozdan ma’qullandi. Binobarin, 10-iyun — Xalqaro sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqot kuni deb e’lon qilindi.

Ushbu rezolyutsiya xalqaro hamjamiyat tomonidan qizg‘in kutib olindi va keng qo‘llab-quvvatlandi. Zero, O‘zbekiston Xitoyning Global sivilizatsiya tashabbusini qat’iy qo‘llab-quvvatlaydi. E’tiborlisi, O‘zbekiston Xitoyning taklifiga binoan “Xalqaro sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqot kuni” rezolyutsiyasini ishlab chiqishda asosiy guruh a’zosi sifatida faol ishtirok etdi va rezolyutsiyaning qabul qilinishiga salmoqli hissa qo‘shdi.

O‘zbekiston yagona Xitoy prinsipini ma’qullaydi. Biz birgalikda uch yovuz kuch — terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi qat’iy kurashmoqdamiz. Mamlakatlarimiz sivilizatsiyalararo muloqotni rivojlantirish borasida ham jahon ahliga munosib namuna bo‘lmoqda.

Tinchlik va totuvlikni mustahkamlash yo‘lida

> **“Xitoy — Markaziy Osiyo” inson huquqlarini rivojlantirish bo‘yicha forumi mavzusiga qaytamiz. Ushbu forum joriy yilda to‘rtinchi marta o‘tkazilmoqda. Bu, bir tomondan, forumning allaqachon an’anaviy ahamiyat kasb etganini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, Xitoy va Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari uchun bunday hamkorlik formati zarurligini amalda tasdiqlaydi.**

Markaziy Osiyo mintaqasidagi qo‘shni va qardosh mamlakatlar bilan hamkorligimiz ham izchil rivojlanmoqda. Binobarin, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz muqaddimasida xalqimiz “xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda, O‘zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlarini hamkorlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib”, Konstitutsiyani qabul qilgani alohida e’tirof etilgani bejiz emas.

Bugun mintaqamiz xalqlari va davlatlarini umumiy sa’y-harakatlarimiz bilan Markaziy Osiyoni barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan mintaqaga, o‘zaro ishonch va do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va manfaatli hamkorlik makoniga aylantirishdek yagona maqsad birlashtirmoqda. Prezidentimiz e’tirof etganidek, “Markaziy Osiyoni tinch va gullab-yashnayotgan hududga aylantirish bundan buyon ham O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor maqsadi bo‘lib qolaveradi”.

Endi “Xitoy — Markaziy Osiyo” inson huquqlarini rivojlantirish bo‘yicha forumi mavzusiga qaytamiz. Ushbu forum joriy yilda to‘rtinchi marta o‘tkazilmoqda. Bu, bir tomondan, forumning allaqachon an’anaviy ahamiyat kasb etganini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, Xitoy va Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari uchun bunday hamkorlik formati zarurligini amalda tasdiqlaydi.

Forumning muxtasar tarixiga nazar solaylik. Xususan, Birinchi “Xitoy — Markaziy Osiyo” inson huquqlarini rivojlantirish forumi 2023-yil 12-sentabrda Pekin shahrida muvaffaqiyatli o‘tkazilib, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlikning yangi bosqichini boshlab bergandi.

Ikkinchi forum 2024-yilda qo‘shni Qozog‘istonning Ostona shahrida bo‘lib o‘tdi. Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida mushtarak taqdirlar hamjamiyatini barpo etish, inson huquqlari rivojlanishi va taraqqiyoti mavzusiga bag‘ishlangan forumda mamlakatimiz delegatsiyasi muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

Uchinchi forum 2025-yilda Xitoyning Sian shahrida bo‘lib o‘tdi. Forum inson huquqlarini birgalikda rivojlantirish yo‘lida sivilizatsiyalararo almashinuv va o‘zaro boyitishni chuqurlashtirish mavzusiga bag‘ishlandi.

Bo‘lajak to‘rtinchi forumga Toshkent mezbonlik qilmoqda. Forumning tashkilotchilari mehmonlar tomondan — Xitoyning Inson huquqlarini rivojlantirish jamg‘armasi, mezbon tomondan — Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi.

Shu o‘rinda Xitoyning Inson huquqlarini rivojlantirish jamg‘armasi Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining yaqin hamkorlaridan ekanini ta’kidlash lozim. 1994-yilda tashkil etilgan ushbu tuzilma Xitoyning Pekin shahrida joylashgan jamoat tashkilotidir. Jamg‘arma faoliyati Xitoyning milliy o‘ziga xosligini inobatga olgan holda inson huquqlari konsepsiyasini ilgari surish va rivojlantirish, shuningdek, ushbu mavzu yuzasidan xalqaro muloqotni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan.

Binobarin, har bir insonning o‘z huquqlaridan to‘liq foydalanish imkoniyatini ta’minlash butun insoniyatning umumiy maqsadidir. Xitoy va Markaziy Osiyoning beshta davlati rivojlanayotgan mamlakatlar sifatida taraqqiyotga birgalikda ko‘maklashish va inson huquqlarini ilgari surish masalalarida keng mushtarak qarashlarga ega.

Bu haqda fikr yuritganda, Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida inson huquqlari sohasida samarali hamkorlik aloqalari izchil rivojlanayotganini ta’kidlash lozim. Tabiiyki, bunda tashkil topganiga 77 yil bo‘layotgan Xitoy Xalq Respublikasining shu tarixan qisqa davrda o‘z taraqqiyotida misli ko‘rilmagan darajada ulkan yutuqlarga erishgani O‘zbekiston va mintaqamizdagi qo‘shni davlatlar uchun g‘oyat muhim.

Barqarorlik, taraqqiyot, yuksalish va yorug‘ kelajak sari

Xitoy keyingi yillarda qashshoq va qoloq mamlakatdan jahon iqtisodiy o‘sishini ta’minlaydigan beqiyos kuch-qudrat manbaiga aylandi. Bunda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘lida qo‘lga kiritgan olamshumul natijalari katta ahamiyat kasb etdi va bugun ayni samarador omillar butun dunyoning diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb etmoqda.

Ushbu davlat dunyodagi beqarorliklarning oldini olishga qaratilgan ko‘plab global tashabbuslarni ilgari surib kelmoqda. Barqarorlikka oid bu g‘oyalar mamlakatda asriy islohotlar sinovidan muvaffaqiyatli o‘tgani bilan ahamiyatlidir.

Xitoy hukumati milliy modernizatsiyani hayotga tatbiq etish jarayonida asosiy e’tiborni xalq farovonligini ta’minlashga qaratmoqda. Ya’ni islohot va taraqqiyot, avvalo, har bir xitoylikning munosib yashashiga xizmat qilsin degan yondashuvga tayanilmoqda. Xuddi shu konsepsiya Xitoyda kambag‘allikka barham berishda hal qiluvchi o‘rin tutgani e’tiborga sazovor.

Natijada Xitoy xalqi 40 yil ichida qashshoqlik va yo‘qchilik domidan qutulib, endi munosib va barqaror turmush sharoitida hayot kechirmoqda. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, o‘tgan davrda 700 milliondan ortiq xitoylik kambag‘allik holatidan chiqishga muvaffaq bo‘lgan.

Innovatsiyalarga tayanadigan davlat sifatida Xitoy iqtisodiy taraqqiyot sur’atini muntazam oshirib bormoqda. Mamlakat hatto “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish sohasida ham muayyan natijalarga erishgani tufayli allaqachon ekologik toza mahsulotlarning jahondagi yirik bozoriga aylanib ulgurdi.

Boshqacha aytganda, yangi Xitoyning 77 yillik rivojlanish yo‘li barqarorlik, taraqqiyot, yuksalish va yorug‘ kelajakka qat’iy ishonchning yorqin namunasidir. Taraqqiyotning xitoycha modeli sotsializm va bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarini o‘zida omuxtalashtirgan bo‘lib, o‘z navbatida, bunday noyob usul Xitoyning iqtisodiy jihatdan eng qudratli davlat maqomini egallashini ta’minlamoqda.

Xitoy erishgan ulug‘vor yutuqlar haqida so‘z borganda, faqat iqtisodiy samaralar tafsiloti bilan cheklanmay, ijtimoiy siyosat, infratuzilmalar va texnologiyalar sohalarida qo‘lga kiritilgan yangidan-yangi marralar xususida ham fikr yuritish lozim deb o‘ylaymiz.

Bu o‘rinda, ayniqsa, Xitoy aholisining nihoyatda ko‘pligi va global muammolarning halokatli ta’siriga qaramay, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va barqarorlikni saqlab turishdek ikkita noyob muvaffaqiyatga erishilgani har qancha tahsinga loyiq. Bugun Xitoy jahon iqtisodiyotining yuragidir. Sayyoramiz hayotining pandemiyadan keyingi og‘ir va murakkab sharoitlarida ham mamlakat iqtisodiyoti barqaror rivojlanayotgani buni amalda tasdiqlab berdi.

Hozir esa o‘z iqtisodiyotining barqarorligi xususiyati bilan jahon iqtisodiyotining rivojlanishi uchun munosib hissa qo‘shmoqda. Binobarin, bir tomondan, mamlakat jahon bozoriga tobora ko‘plab tovarlar yetkazib berayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tashqi bozorlardan ham ko‘pdan ko‘p mahsulotlarni muntazam xarid qilmoqda.

Shu omillarning o‘zi ham yangi O‘zbekistonning yangi Xitoy bilan har tomonlama hamkorlikni rivojlantirishi g‘oyat manfaatli ekanidan dalolat beradi, nazarimizda. Yurtlarimiz va xalqlarimiz o‘rtasida necha ming yillik tarixiy hamkorlik aloqalari mavjudligi esa, albatta, alohida mavzu.

Shuningdek, Xitoy tomoni 2025-yilda Samarqandda ikkinchi O‘zbekiston — Xitoy hududlararo forumi o‘tkazilishini to‘liq qo‘llab-quvvatladi. Samarqand forumida Xitoy va mintaqa davlatlaridan vakillar ham ishtirok etgani bizga mamnuniyat bag‘ishladi.

Xitoyliklarda bunday maqol bor: “Mehnat-mashaqqat chekmasang, tuproq ichidan oltinni ajratib olishing mushkul”. O‘zbek xalqining mana bu maqollari shu mantiqqa o‘ta uyg‘un, ya’ni “Toqqa chiqmasang, do‘lana qayda?” yoki “Tekinga osmondan chalpak yog‘maydi”.

Mintaqa davlatlari o‘rtasida inson huquqlari bo‘yicha hamkorlik

Bugun Markaziy Osiyo tarixning chetida emas, u o‘z strategik kun tartibini shakllantirayotgan, jadal rivojlanayotgan mintaqaga aylanmoqda. Siyosiy iroda, yuqori darajadagi o‘zaro ishonch va qo‘shma iqtisodiy tashabbuslar mintaqada barqaror rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar ochdi.

Mintaqamiz davlatlari o‘rtasidagi madaniy aloqalarning faollashishi natijasida xalqlarimiz yanada yaqinlashmoqda. Mintaqa doirasidagi siyosiy muloqotlar va parlamentlararo almashuvlar doimiy tus olmoqda.

Markaziy Osiyo yetakchilari tomonidan, jumladan, qonun ustuvorligi, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini rag‘batlantirish hamda himoya qilish barcha uchun birdek muhim fundamental qadriyat ekani muntazam ta’kidlab kelinmoqda. Bu o‘rinda, albatta, fikrni ifoda etish erkinligi va jamoat birlashmalariga uyushish huquqini ta’minlash, fuqarolik jamiyati va mustaqil ommaviy axborot vositalari uchun sog‘lom muhit yaratish, huquq himoyachilarini muhofaza qilish, ayollar, bolalar va mehnat migrantlari huquqlarini hurmat qilish o‘zaro hamkorlik munosabatlarimizning tub negizini tashkil qilishi haqida so‘z bormoqda.

Eng asosiysi, xalqaro siyosiy lug‘atda mintaqaviy taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qiluvchi o‘ziga xos modelni aks ettiradigan “Markaziy Osiyo ruhi” atamasi paydo bo‘ldi. Bugun biz global va mintaqaviy siyosat kun tartibidagi ko‘plab dolzarb masalalar bo‘yicha yagona pozitsiyada turib harakat qilmoqdamiz.

Natijada qisqa muddatda dunyoda mintaqamizga nisbatan ishonch va hamkorlikka intilish kuchaydi. “Markaziy Osiyo +” formatida 10 dan ortiq hamkorlik muloqoti yo‘lga qo‘yilgani buni tasdiqlaydi.

Mintaqa mamlakatlarining inson huquqlari sohasida o‘zaro hamkorlik borasidagi tajribasi ham e’tiborga loyiq. Avvalo, Markaziy Osiyo mamlakatlari Konstitutsiyasida “Davlat inson huquqlarini hurmat qiladi va ta’minlaydi” degan tamoyil aniq-tiniq belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, Qozog‘istonda 2023-yilda mamlakat Prezidenti tomonidan tasdiqlangan Inson huquqlari va qonun ustuvorligi sohasidagi uchinchi harakatlar rejasi amalga oshirilmoqda. Qirg‘iziston hukumati 2022-2024-yillar uchun Inson huquqlari bo‘yicha harakatlar rejasini qabul qildi va amalga oshirdi. Tojikiston hukumati 2023-yilda Inson huquqlari bo‘yicha milliy strategiyani qabul qildi. Turkmaniston Prezidenti tomonidan 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan Inson huquqlari bo‘yicha milliy harakatlar rejasi tasdiqlandi.

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi 2020-yilda qabul qilingan bu sohadagi ilk hujjatdir. Joriy yilda davlat dasturi doirasida bu boradagi ikkinchi dasturiy hujjat — “Inson huquqlari — 2030” strategiyasi ishlab chiqilmoqda.

Bugungi mintaqaviy hamkorligimiz darajasi, shubhasiz, Markaziy Osiyo mintaqasi xalqaro munosabatlarning mustaqil subyekti maqomida o‘zini namoyon etishga dadil kirishganini amalda isbotlaydi. Binobarin, XXI asrning uchinchi o‘n yilligida Markaziy Osiyo xalqaro hayotning mustaqil subyekti sifatida qayta tiklanishi o‘zida muhim jarayonlarni ham ifodalovchi, ham aks ettiruvchi olamshumul voqeadir.

Poytaxtimizda o‘tkaziladigan forum doirasidagi muzokaralar ishtirokchilardan katta kuch-g‘ayrat, faollik va tashabbuskorlikni talab etadi. Chunki mavzu doirasidagi masalalar ko‘lami keng va g‘oyat mas’uliyatlidir. Forumda, jumladan, Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlarining inson huquqlari sohasidagi hamkorligining asosiy ustuvor yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Rivojlanish huquqini ro‘yobga chiqarish maqsadida kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini yaxshilash bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish, ekologiyani muhofaza qilish, “yashil” rivojlanish va inson huquqlarini himoya qilish, inson huquqlari rivojiga ko‘maklashuvchi raqamli intellektual texnologiyalarni ilgari surish kabi sohalardagi hamkorlik istiqbollari keng muhokama qilinadi.

Yanada muhimi, “Xitoy — Markaziy Osiyo” inson huquqlarini rivojlantirish forumining “Toshkent tashabbusi” deb nomlangan yakuniy hujjati qabul qilinishi kutilmoqda. Ushbu hujjatda o‘z aksini topadigan tashabbuslar Xitoy va mintaqamiz davlatlarining inson huquqlari sohasidagi hamkorlik munosabatlarini yangi bosqichga ko‘tarishi shubhasiz.

Islohotlar amalda

SUV XO‘JALIGIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRI

Suvni tejash har doimgidan ham ko‘ra dolzarb va muhim vazifa ekaniga ortiqcha ta’rif shart emas. Zero, asta-sekin kuchayib borayotgan suv tanqisligi allaqachon global muammolardan biriga aylanib ulgurdi.

Sobirjon ISAYEV,
Farg‘ona viloyati hokimining ilmiy maslahatchisi, professor

O‘zbekistonda obihayotni tejash, suv xo‘jaligini modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni joriy etish borasidagi islohotlar ko‘lami kundan kunga kengayib bormoqda. Ayniqsa, Prezidentimizning 2026-yil 2-apreldagi “Qishloq va suv xo‘jaligi muhandislarini tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori sohada innovatsion yondashuvlar, zamonaviy injenerlik yechimlari va raqamli boshqaruv tizimlarini keng joriy etishda huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bunday yangilanishlarni Farg‘ona viloyati misolida ham ko‘rish mumkin.

Farg‘ona mamlakatimizning aholisi ko‘p va qishloq xo‘jaligi rivojlangan viloyatlaridan. Tabiiyki, hududda suvga talab ham yuqori. Shu omilning o‘ziyoq viloyatda suvtejamkor tizimning ahamiyati qanchalik muhim ekanini ko‘rsatadi. Hozir Farg‘onada sug‘oriladigan ekin maydonlariga yiliga o‘rtacha 3-4 milliard kub metr suv sarflanadi. Viloyat suv resurslarining 51 foizi Norin — Sirdaryo tizimi hisobiga, 15 foizi Qoradaryo, 24 foizi mahalliy soylar, 6 foizi yer osti suvi va 4 foizi kollektor suvi hisobiga shakllanadi. Biroq suvni yetkazib berish jarayonidagi yo‘qotishlar hali to‘la barham topgani yo‘q. Ayrim hududlarda bu ko‘rsatkich 30 foizgacha yetadi. Shu bois, bugun viloyat suv xo‘jaligida zamonaviy texnika va texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda. Viloyatda 3 ta suv ombori, 6214 kilometr xo‘jaliklararo kanal, 12 ming 398 kilometr ichki sug‘orish tarmog‘i, davlatga tegishli 168 ta nasos stansiyasi, 3589 ta tik quduq hamda 15 ming 57 kilometr kollektor-drenaj tarmoqlaridan iborat yirik infratuzilma mavjud. Demak, sohadagi islohotlar ko‘lami keng bo‘lishi barobarida muayyan muddat ham talab etadi. Bu borada esa allaqachon dastlabki natijalar ko‘rina boshladi. Xususan, 2025-yilda 6800 gektar maydonda tomchilatib sug‘orish, 4300 gektarda yomg‘irlatib sug‘orish, 10 ming 700 gektarda diskret va boshqa zamonaviy texnologiyalar joriy etildi. Shuningdek, 18 ming 500 gektar yer lazer yordamida tekislandi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, mazkur ishlar natijasida bir yilning o‘zida 195 million kub metr suv iqtisod qilingan. Suv resurslarini tejash borasidagi ishlar shu bilan cheklanib qolayotgani yo‘q, albatta. Joriy yilda yana 20 ming gektardan ortiq ekin maydonida zamonaviy suv tejovchi texnologiyalar qo‘llanadi.

Qancha vaqtdan beri tubi qum va bo‘sh tuproq bo‘lgan o‘zanlar sabab obihayotning katta qismi yerga singib ketayotgan edi. Keyingi yillarda mamlakatimizda kanal va ariqlarni betonlash yo‘lga qo‘yilgach, bu borada ijobiy natijalar ko‘rina boshladi. Masalan, o‘tgan yili Farg‘onada kanal va ariqlarning 1484 kilometr qismi betonlandi. Natijada 24,5 million kub metr suv iqtisod qilinib, 19 ming 500 gektar yerning suv ta’minoti yaxshilandi. Ana shu tejamkorlik samarasi o‘laroq, yerning meliorativ holati o‘zgarib, hosildorlikda o‘sish kuzatildi. Shu tariqa sohadagi masalalarga aniq yechim berilmoqda.

Ayni o‘rinda yana bir haqiqatni tan olish kerak. Betonlangan ariqdan manzilgacha yetib borgan suvdan ham samarali foydalana bilish zarur. Texnik taraqqiyot esa bu borada bizga keng imkoniyatlar taqdim etadi. Masalan, sohaga “aqlli suv boshqaruvi” tizimi joriy etilishi ko‘plab masalalarga amaliy yechim beradi. Viloyatda bu boradagi ishlar ham bosqichma-bosqich davom etmoqda. Masalan, joriy yilda 17 ta transchegaraviy, 224 ta tumanlararo nuqtaga radar texnologiyasi asosida ishlaydigan “aqlli” suv o‘lchash qurilmalari o‘rnatiladi. Ular kelayotgan suv miqdorini real vaqt rejimida ko‘rsatib, uni oqilona boshqarish imkonini beradi. Qolaversa, suv sarfini raqamlashtirish orqali obihayotga ehtiyojni oldindan yuqori darajada prognozlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, viloyatdagi 548 ta nasos agregatiga real vaqt rejimida suv sarfini o‘lchash uskunalari, 277 ta meliorativ quduqqa “Dayver” qurilmalari o‘rnatiladi. Bu orqali suv sarfi onlayn kuzatilib, yo‘qotishlar tezkor aniqlanadi. Muhimi, suv taqsimotida inson omili ishtiroki kamayadi.

Energiya tejamkorligi ham suv xo‘jaligining muhim yo‘nalishlaridan. Bu borada ham islohotlar samara bera boshladi. Xususan, o‘tgan yili ayni yo‘nalishda qilingan ishlar tufayli 120 kilovatt quvvatli quyosh paneli o‘rnatildi. Natijada yil yakuni bo‘yicha 4,6 million kilovatt-soat elektr energiyasi tejaldi. Bundan tashqari, klaster va fermer xo‘jaliklaridagi 943 ta nasos agregatiga umumiy quvvati 28,5 megavatt bo‘lgan quyosh panellari o‘rnatildi. Shu orqali fermer va klasterlar energiyaga sarflanadigan 28,5 milliard so‘mni iqtisod qilishga erishdi. Sodda qilib aytganda, zamonaviy fermerlar quyosh nuridan ham foyda topmoqda.

Sohada xalqaro hamkorlik ko‘lami ham kengayib boryapti. Xususan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokida 2026-2028-yillarda 16 ta yirik nasos stansiyasi modernizatsiya qilinadi. Germaniyaning GLOTECH kompaniyasi ishtirokida davlat-xususiy sheriklik asosida 10 ta nasos stansiyasi to‘liq yangilanadi. Bu orqali nasos stansiyalarining foydali ish koeffitsiyenti 0,85 gacha oshadi va yiliga 2,3 million kilovatt-soat elektr energiyasi tejaladi.

Mamlakatimizdagi islohotlar ilm-fanga asoslanib, davr nafasiga munosib o‘tkazilmoqda. Jumladan, suv resurslarini tejash, undan maqsadli foydalanishda zamonaviy texnologiya, ilm-fan va raqamli boshqaruvdan samarali foydalanish yo‘lga qo‘yilyapti. Mazkur yangilanishlar esa barqaror taraqqiyot, aholi farovonligi kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Dolzarb mavzu

Bugun iqtisodiy o‘sishni oddiy formula bilan baholash mumkin: yalpi ichki mahsulot o‘ssa, demak, taraqqiyot bor. Mazkur yondashuv uzoq yillar davomida global iqtisodiy siyosatning asosiy mezoni bo‘lib keldi. Biroq bu formulaning eng katta kamchiligi shundaki, u tabiatni hisobga olmaydi. Tabiiy resurslar sarflanadi, ekotizimlar izdan chiqadi, lekin bu yo‘qotishlar iqtisodiy hisob-kitoblarda aks etmaydi. Natijada paradoks yuzaga keladi: raqamlarda o‘sish bor, lekin uning poydevori zaiflashib boradi.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

KECHIKTIRISHNI KECHIRMAYDI

Farida QO‘LDOSHEVA,
Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti dotsenti

Aslida, iqtisodiyot va ekologiya o‘rtasida raqobat yo‘q. Ular bir-biriga qarama-qarshi emas, balki o‘zaro bog‘liq. Yer, suv, havo va biologik resurslar iqtisodiyotning tashqi omili emas, aksincha asosiy kapitali. Ularni hisobga olmay turib barqaror rivojlanish haqida gapirish nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham noto‘g‘ri.

Keyingi o‘n yilliklarda bu haqiqat yanada ochiq ko‘rina boshladi. Iqlim o‘zgarishi global iqtisodiyotga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatmoqda. Suv resurslari tanqisligi qishloq xo‘jaligida hosildorlikni pasaytirmoqda. Yer degradatsiyasi ishlab chiqarish qiymatini oshirmoqda. Havo ifloslanishi esa sog‘liqni saqlash xarajatini ko‘paytirib, mehnat unumdorligini pasaytirmoqda.

Jahonda atmosfera ifloslanishi bilan bog‘liq iqtisodiy yo‘qotishlar yiliga trillionlab dollarga baholanmoqda. Ayrim hisob-kitoblarga ko‘ra, faqat havo ifloslanishining o‘zi global YIMning 5-7 foiziga teng iqtisodiy zarar keltirmoqda. Bu esa ekologik muammolar allaqachon iqtisodiy xavf darajasiga chiqqanini anglatadi.

Mamlakatimiz misolida bu bog‘liqlik yanada aniq namoyon bo‘ladi. Iqtisodiyotimizning katta qismi resurslarga, ayniqsa, suvga bog‘liq. Qishloq xo‘jaligi YIMning taxminan 20-25 foizini ta’minlaydi. Bandlikda esa ulushi 25 foizdan yuqori. Shu bilan birga, suv resurslarining 80 foizdan ortig‘i aynan shu sektorda sarflanadi.

Bu raqamlar bir qarashda oddiy ko‘rinishi mumkin. Lekin muammo shundaki, suvdan foydalanish samaradorligi past. Ayrim hisob-kitoblarga ko‘ra, irrigatsiya tizimida suv yo‘qotilishi 30-40 foizgacha yetadi. Demak, iqtisodiy o‘sishning bir qismi samarasiz resurs sarfi hisobiga ta’minlanmoqda.

Endi asosiy savol paydo bo‘ladi: biz haqiqiy o‘sishni ko‘ryapmizmi yoki resurslar hisobidan yaratilgan vaqtinchalik natijani?

An’anaviy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali bu savolga javob topib bo‘lmaydi. Chunki YIMni hisoblashda tabiiy kapital kamayishi, ekotizim xizmatlari yo‘qolishi va ekologik zararlar inobatga olinmaydi. Natijada iqtisodiy o‘sish noto‘liq holatda aks etadi.

Shu sababli so‘nggi yillarda xalqaro amaliyotda “yashil YIM” tushunchasi shakllandi. Uning mohiyati oddiy: iqtisodiy o‘sishdan tabiatga yetkazilgan zarar ayirib tashlanadi. Biroq bu yondashuv oddiy formula emas — u iqtisodiy fikrlashning tub o‘zgarishini anglatadi. Chunki bu holatda iqtisodiyotga birinchi marta tabiatdan mustaqil emas, balki uning bir qismi sifatida qaraladi.

Xalqaro tajriba ekologik omillarga tayanib hisoblangan iqtisodiy ko‘rsatkichlar an’anaviy YIMdan sezilarli darajada farq qilishini ko‘rsatmoqda. Ayrim mamlakatlarda “yashil YIM” an’anaviy YIMdan 10-15 foizgacha past chiqishi qayd etilgan. Natijada rasmiy o‘sishning muayyan qismi tabiat hisobiga ta’minlanayotganini ko‘rsatadi.

Bu holat, ayniqsa, agrar sektorda yaqqol ko‘rinadi. Suv resurslaridan intensiv foydalanish yerlarning sho‘rlanishi va unumdorlikning pasayishiga olib kelmoqda. Ayrim hududlarda yerning 40-50 foizigacha turli darajada degradatsiyaga uchragani qayd etilgan. Bu esa quyidagi paradoksni yuzaga keltiradi: bugungi hosildorlik ertangi yo‘qotishlar hisobiga ta’minlanmoqda.

Sanoat sohasida ham o‘xshash holat kuzatiladi. Energiya sig‘imi yuqori tarmoqlar ulushi katta bo‘lib qolmoqda. Yurtimizda energiya sarfi YIM birligiga nisbatan rivojlangan davlatlardagiga qaraganda bir necha baravar yuqori. Bu esa iqtisodiyotning samaradorligi past ekanini anglatadi. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi hanuz cheklangan. Bu esa kelajakda energetika xavfini kuchaytirishi mumkin.

Eng katta xavf — ekologik jarayonlarni qaytarib bo‘lmasligida. Bioxilma-xillikning yo‘qolishi, tuproq unumdorligining keskin pasayishi yoki suv zaxiralarining tanqisligi — bularni keyinchalik tiklash juda qimmatga tushadi yoki umuman mumkin emas. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ekologiya faqat tabiatni muhofaza qilish emas, balki iqtisodiy xavfsizlik masalasidir.

Bu haqiqatni eng yorqin ko‘rsatgan misol — Orol inqirozi. U faqat ekologik fojia emas, balki noto‘g‘ri qarorlarning oqibati sifatida butun bir hududning iqtisodiy tizimini izdan chiqargan holat. Bu tajriba tabiatni hisobga olmagan iqtisodiy siyosat oxir-oqibat iqtisodiy yo‘qotishga olib kelishidan dalolat beradi.

Shuning uchun bugun asosiy vazifa aniq: ekologik omillarni iqtisodiy qarorlar markaziga olib chiqish. Bu esa shunchaki ekologik islohot emas, balki iqtisodiy tafakkurni o‘zgartirish masalasi hamdir.

Ekologik va iqtisodiy manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash nazariy muhokamalar doirasidan chiqib, aniq siyosat qarorlarini talab qiladigan bosqichga o‘tdi. Ushbu jarayonda eng muhim savol: qaysi sohalarda o‘zgarish birinchi bo‘lishi kerak va bu o‘zgarishlar qanday iqtisodiy mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?

Mamlakatimiz sharoitida bu savolga javob aniq: transformatsiya markazida suv, energetika va sanoat siyosati turishi kerak. Chunki aynan shu uch yo‘nalish iqtisodiy o‘sish va ekologik bosim o‘rtasidagi asosiy bog‘liqlikni belgilaydi.

Avvalo, suv resurslari masalasi. Mamlakatimizda suv resurslarining taxminan 80-90 foizi qishloq xo‘jaligiga sarflanadi. Biroq ushbu sarfning katta qismi samarasiz. Irrigatsiya infratuzilmasi eskirgani, ochiq kanallar orqali yo‘qotishlar va zamonaviy texnologiyalarning yetarli emasligi natijasida umumiy suvning kamida uchdan bir qismi ishlab chiqarishga yetmasdan yo‘qoladi.

Bu raqamlar bir narsani aniq ko‘rsatadi: muammo resurs yetishmasligida emas, balki uni boshqarish samaradorligida.

Shu nuqtayi nazardan, suv siyosatida uchta prinsipial o‘zgarish zarur. Birinchisi, iqtisodiy signallarni o‘zgartirish. Suv amalda bepul resurs sifatida qabul qilinayotgan sharoitda uni tejashga rag‘bat yo‘q. Agar resurs narxi nolga yaqin bo‘lsa, uning samaradorligi ham nolga yaqin bo‘ladi. Shuning uchun bosqichma-bosqich tarif islohoti zarur. Albatta, ijtimoiy himoya mexanizmlari bilan birga amalga oshirilishi kerak.

Ikkinchisi, texnologiya transformatsiyasi. Tomchilatib sug‘orish va suvni aniq hisobga olish tizimlari joriy etilmasa, samaradorlikni oshirish mumkin emas. Hozirgi holatda zamonaviy sug‘orish texnologiyalari umumiy maydonning nisbatan kichik qismida qo‘llanmoqda. Bu esa ulkan samaradorlik rezervi mavjudligini anglatadi.

Uchinchisi, institutsional o‘zgarishlar. Suv resurslarini boshqarishda markazlashgan va mahalliy darajalar o‘rtasidagi mas’uliyat taqsimoti aniq emas. Natijada “umumiy resurs — shaxsiy mas’uliyat yo‘q” modeli shakllanib, samaradorlik pasayadi.

Shu bilan birga, agrar siyosatning o‘zi ham qayta ko‘rib chiqilishi kerak. Hozirgi modelda suv talabi yuqori ekinlar ustuvor. Bu esa tabiiy cheklovlar bilan ziddiyatga kirishmoqda. Demak, masala faqat texnologiyada emas, balki ixtisoslashuvda ham.

Ikkinchi yo‘nalish — energiya siyosati. mamlakatimiz iqtisodiyoti energiya sig‘imi yuqori bo‘lgan iqtisodiyotlar qatoriga kiradi. Ya’ni YIM birligiga nisbatan sarflanayotgan energiya hajmi yuqori. Bu esa ikki narsani anglatadi: birinchidan, resurslar ortiqcha sarflanmoqda, ikkinchidan, mahsulot tannarxi oshmoqda.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, energiya samaradorligini 20-25 foiz oshirish orqali sanoat xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Bu esa raqobatbardoshlikni kuchaytirish bilan birga ekologik bosimni ham pasaytiradi.

Bu yerda ham transformatsiya ikki bosqichda amalga oshirilishi kerak.

Birinchi bosqich — samaradorlik. Energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, issiqlik yo‘qotilishini kamaytirish, modernizatsiya.

Ikkinchi bosqich — struktura. Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish. O‘zbekistonda quyosh radiatsiyasi yuqori bo‘lib, yillik quyoshli kunlar soni 300 ga yaqin. Ya’ni quyosh energetikasi uchun katta potensial mavjudligini anglatadi.

Biroq bu yerda oddiy xato qilinmasligi kerak: qayta tiklanuvchi energiya “arzon muqobil” emas, balki uzoq muddatli investitsiya. Agar tarif siyosati, tarmoq infratuzilmasi va zaxira quvvatlar hisobga olinmasa, bu loyihalar iqtisodiy jihatdan samarasiz bo‘lishi mumkin.

Uchinchi yo‘nalish — sanoat transformatsiyasi. Eksportga yo‘naltirilgan sanoat rivojlanishi muhim, lekin jarayon resurs sig‘imi yuqori bo‘lgan model asosida davom etsa, uzoq muddatli muammolarni kuchaytiradi.

Shu nuqtayi nazardan, sanoat siyosatida ikki ustuvorlik aniq bo‘lishi kerak: energiya va resurs samaradorligi hamda qo‘shilgan qiymatni oshirish zarurati.

Agar iqtisodiyot xomashyo va energiyaga tayangan holda rivojlansa, u ekologik va iqtisodiy jihatdan barqaror bo‘lmaydi. Uch yo‘nalishni moliyalashtirish esa alohida muammo. Chunki ekologik transformatsiya katta investitsiya talab qiladi. Davlat byudjeti esa cheklangan.

Shu sababli “yashil” moliya instrumentlari muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon amaliyotida “yashil” obligatsiyalar, ESG standartlari va xalqaro moliya institutlari orqali katta mablag‘ jalb qilinmoqda.

Ekologik barqarorlik tanlov emas, balki iqtisodiy xavfsizlik shartidir. Tabiatni hisobga olmagan iqtisodiyot muayyan muddat ishlashi mumkin, ammo barqaror bo‘lolmaydi. Shuning uchun asosiy savol o‘sish bor-yo‘qligi emas, balki qaysi narx evaziga ekanidadir.

Bugungi sharoitda mazkur savolga aniq siyosiy qarorlar orqali javob topilmoqda. Xususan, Prezidentimizning 2026-yil 25-martdagi “Atmosfera havosi sifatini yaxshilashga qaratilgan “Toza havo” umummilliy loyihasini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ekologik sohadagi navbatdagi dastur emas, balki yondashuv o‘zgarishining belgisi sifatida baholanishi kerak.

Qarorning eng muhim jihati shundaki, ekologiya alohida sektor sifatida emas, balki iqtisodiyot, ta’lim va jamiyat qamrab olinuvchi tizim sifatida ko‘riladi. Ya’ni muammo tabiatda emas, balki inson kapitali, bilim va boshqaruv sifatida ekani ochiq tan olinmoqda.

Hujjatda ekologik madaniyatni shakllantirish, xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash va ta’lim tizimini qayta qurish ustuvor vazifa sifatida belgilangani bejiz emas.

Bu ekologik siyosatni nazorat va cheklovlardan bilim va kompetensiyaga o‘tkazishga urinishdir.

Masalan, har bir hududda “yashil texnikumlar” tashkil etish tashabbusi katta ko‘lamdagi institutsional o‘zgarishni anglatadi. Bu ekologik bilimni markazdan hududlarga tarqatish, uni elita sohasidan ommaviy kompetensiyaga aylantirish demak.

Xuddi shu holat ta’lim va ilm-fan integratsiyasida ham kuzatilishi mumkin. Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi nisbatni o‘zgartirish, amaliyot ulushini 70-80 foizgacha oshirish kabi qarorlar to‘g‘ri, lekin ularni amalga oshirish uchun infratuzilma va kadrlar tayyorgarligi yetarli bo‘lishi shart.

Yana bir muhim jihat ekologik siyosatning iqtisodiy mazmun bilan to‘ldirilishidir. “Yashil iqtisodiyot”, sirkulyar iqtisodiyot va barqaror moliya kabi yo‘nalishlar joriy etilayotgani bu sohaga endi xarajat emas, investitsiya sifatida qaralayotganini ko‘rsatadi. Biroq bu tushunchalar amaliyotda ishlamasa, faqat termin sifatida qolib ketishi mumkin.

Ekologik va iqtisodiy siyosat o‘rtasidagi munosabatni qayta ko‘rib chiqish masalasi bugun tanlov emas, balki zaruratga aylandi. Chunki o‘sish modeli o‘zining ichki cheklovlariga yaqinlashmoqda. Resurslarga tayangan rivojlanish qisqa muddatda natija beradi, ammo uzoq muddatda iqtisodiy tizimning o‘ziga bosim yaratadi.

Ushbu holatni sodda misol bilan tushuntirish mumkin: agar iqtisodiyot tabiat kapitali hisobidan o‘ssa, u holda bu o‘sish qarz hisobidan amalga oshirilayotganga o‘xshaydi. Farqi shundaki, qarz moliyaviy hisobotlarda ko‘rinmaydi, lekin uning foizi juda yuqori bo‘ladi.

Asosiy masala “iqtisodiy o‘sish yoki ekologiya” tanlovi emas. Asl savol boshqacha qo‘yilishi kerak: qanday o‘sish va qaysi narx evaziga?

Agar o‘sish resurslar sarfi, suv tanqisligi, yer degradatsiyasi va sog‘liqqa ta’sir hisobidan ta’minlansa, u holda o‘sish barqaror emas. U iqtisodiy ko‘rsatkichlarda aks etsa-da, real farovonlikni oshirmaydi.

Shu sababli iqtisodiy siyosat markazida sifat masalasi turishi kerak. Ya’ni o‘sish sur’ati emas, balki uning tarkibi va manbalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bugungi sharoitda ekologik omillarni hisobga olmaslik noto‘g‘ri hisob-kitob emas, balki strategik xatodir. Chunki ekologik cheklovlar allaqachon iqtisodiy cheklovlarga aylanmoqda. Suv resurslari, energiya samaradorligi, yer holati — bular iqtisodiy o‘sishning kelajak chegaralarini belgilab beradi.

Shu nuqtayi nazardan, ekologik-iqtisodiy transformatsiya uchta asosiy tamoyilga tayanish kerak.

Birinchisi, tabiiy kapitalni tan olish. Tabiatga resurs emas, aktiv sifatida qaralishi kerak. Uning qiymati hisobga olinmas ekan, iqtisodiy qarorlar ham noto‘g‘ri bo‘ladi.

Ikkinchisi, samaradorlikni oshirish. Suv, energiya va yer resurslaridan foydalanish samaradorligi iqtisodiy siyosatning markaziy ko‘rsatkichiga aylanishi lozim. Bu yerda gap faqat tejash haqida emas, balki raqobatbardoshlik haqida ketmoqda.

Uchinchisi, institutsional sifat. Eng to‘g‘ri strategiya ham, agar uni amalga oshiradigan institutlar zaif bo‘lsa, natija bermaydi. Ma’lumotlar shaffofligi, hisobdorlik va muvofiqlashtirish ekologik siyosatning texnik emas, asosiy shartidir.

Shu bilan birga, transformatsiya jarayonida vaqt omilini unutmaslik kerak. Ekologik muammolar kechiktirishni kechirmaydi. Ortga surilgan har bir qaror keyinchalik ancha yuqori iqtisodiy va ijtimoiy xarajatlarga olib keladi. Bu yerda yana bir muhim haqiqat bor: eng qimmat ssenariy bu — hech narsa qilmaslik.

Chunki inersion rivojlanish tashqi jihatdan barqaror ko‘rinsa-da, ichki muammolarni yig‘ib boradi. Vaqt kelib, bu muammolar iqtisodiy o‘sishni sekinlashtiradi yoki to‘xtatadi.

Aksincha, ekologik transformatsiya qisqa muddatda qiyin va xarajatli ko‘rinishi mumkin. Lekin u uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, tanlov aslida uchta ssenariy o‘rtasida emas. Tanlov bitta: nazorat qilingan transformatsiya yoki nazoratsiz oqibatlar.

Mamlakatimiz taraqqiyotining keyingi bosqichi aynan shu qarorga bog‘liq bo‘ladi.

Yakunda bir oddiy, lekin hal qiluvchi savol qoladi: iqtisodiyot tabiatni hisobga olgan holda o‘zgaradimi yoki tabiat cheklovlari uni majbur qiladimi?

Mazkur savolga javob bugun qabul qilinayotgan qarorlarda mujassam.

Bu yilgi 9-sinf bitiruvchilarining 16 ming 481 nafari a’lo darajali shahodatnomaga, 11-sinf bitiruvchilarining 12 mingga yaqini kumush va oltin medalga ega bo‘lishi kutilyapti.

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Resursdan — natijaga

ILM — KUTUBXONA UCHUN EMAS, HAYOT UCHUN

BUGUNGI KUN RAHBARIDAN QAT’IYATDAN TASHQARI, MUAMMONING ICHKI MOHIYATINI ILMIY ASOSDA ANGLASH SALOHIYATI HAM TALAB ETILADI

Toshpo‘lat MATIBOYEV,
sotsiologiya fanlari doktori, professor

Tez o‘zgarayotgan dunyoda ilm-fanning qadri uning qanchalik ko‘p kitoblarda aks etgani bilan emas, balki insonlar hayotini qanchalik ijobiy tomonga o‘zgartirgani bilan o‘lchanmoqda. Gap shundaki, uzoq yillar ilmiy faoliyat deganda faqat dissertatsiya himoya qilish, akademik unvon olish va kutubxonalar uchun qalin jildli kitoblar yozish tushunib kelindi.

Natijada nazariya va hayot o‘rtasida ulkan uzilish paydo bo‘ldi. Biroq tarix guvohlik beradiki, insoniyat erishgan eng buyuk yutuqlar aynan nazariya va amaliyotning jipslashgan nuqtasida tug‘ilgan. Shu sababli bugungi davr talabi “ilmiy ish ilmiy ish uchun” emas, balki “hayot uchun ilm” tamoyilidir. Bu tamoyil olimlardan bilim to‘plashdan tashqari jamiyatning eng og‘riqli muammolariga real yechim topishni talab qiladi. Ilm-fanning amaliyot bilan uyg‘unligi uchta muhim yo‘nalishda strategik ustunlik beradi.

Birinchidan, ijtimoiy muammolarning tezkor yechimi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash va ekologiya kabi sohalardagi muammolar faqat kabinetda o‘tirib emas, balki real vaziyatni ilmiy tahlil qilish orqali hal etiladi.

Ikkinchidan, innovatsiya va raqobatbardoshlikni yuzaga keltiradi. Yangi texnologiyalar hamda boshqaruv usullari kundalik ehtiyojlardan kelib chiqib yaratilgandagina davlat jahon bozorida raqobatbardosh bo‘la oladi.

Uchinchidan, yosh olimlar mas’uliyatini oshiradi. Tadqiqotchi o‘z ishining natijasi qaysidir korxona yoki sohada qo‘llanishini bilsa, uning jamiyat oldidagi mas’uliyati va ishtiyoqi bir necha barobar ortadi.

Prezidentimiz ta’kidlayotgan eng muhim jihatlardan biri muammoni joyida o‘rganishdir. Haqiqiy olim — hayotning ichiga kirib borgan inson. Qishloq xo‘jaligi olimi dalada fermer bilan yelkama-yelka turishi, ta’lim sohasi tadqiqotchisi esa maktab partasidagi muhitni his qilishi shart. Shundagina ilmiy ish naf keltiradigan kuchga aylanadi.

Germaniya, Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlarning iqtisodiy mo‘jizasi zamirida aynan universitetlar va ishlab chiqarish o‘rtasidagi mustahkam ko‘prik yotadi. Ularda har bir ilmiy g‘oya bozorda yoki ijtimoiy sohada o‘z aksini topmasa, u to‘liq qiymatga ega deb hisoblanmaydi. Shuning uchun bugun yangi O‘zbekistonda ham ilmiy tadqiqotlarni baholash mezonlari tubdan o‘zgarmoqda. Endi asosiy e’tibor maqolalar soniga emas, balki o‘sha tadqiqotning amaliy ahamiyatiga qaratilmoqda. Davlat tomonidan yaratilayotgan innovatsion markazlar, startaplar va ilmiy grantlar aynan ilmni hayotga yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda. Ilm esa jamiyatni harakatga keltiruvchi kuch. Agar u amaliyotdan uzilsa, o‘z mohiyatini yo‘qotadi.

Insoniyat tarixida ilm-fan rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk muhaddis Imom Buxoriyning ilmiy merosida markaziy o‘rinlardan birini ilm va amal uyg‘unligi g‘oyasi egallaydi. Bugungi kunda “ilm hayot uchun xizmat qilishi kerak” degan tamoyil aynan Imom Buxoriyning bundan o‘n bir asr oldin ilgari surgan ta’limotlari bilan hamohangdir. Imom Buxoriy o‘zining shoh asari bo‘lmish “Sahihul Buxoriy”da alohida bir bobni “Ilm so‘z va amaldan oldindir” deb nomlagan. Bu nafaqat diniy, balki dunyoviy taraqqiyotning ham oltin qoidasidir. U zotning fikricha, ilmsiz amal — xato. To‘g‘ri bilimga tayanmagan har qanday harakat adashishga yoki samarasiz natijaga olib keladi. Amalsiz ilm — samarasiz. Ilm insonning zehnida yoki qog‘ozda qolib ketsa, u xuddi meva bermaydigan daraxt kabi foydasiz. Inson, avvalo, to‘g‘ri ilmga ega bo‘lishi, so‘ngra mana shu ilm asosida so‘zlashi va ish tutishi lozim. Bu jamiyatda tartibsizlik va yuzakilikning oldini oluvchi asosiy omildir.

Imom Buxoriy ta’limotiga ko‘ra, haqiqiy olim faqat ko‘p ma’lumot to‘plagan shaxs emas, balki bilganiga amal qilgan insondir. Ilm insonning axloqini tarbiyalashi, uning ichki dunyosini o‘zgartirishi kerak. Agar ilm amalga aylanmasa, u shunchaki ma’lumotlar to‘plami bo‘lib qolaveradi va uning jamiyatga ta’siri sezilmaydi. Bu g‘oya bugungi kun olimlari, rahbarlari va tadqiqotchilari uchun juda katta mas’uliyat yuklaydi. Har bir ilmiy izlanishning ortida insoniyat manfaati va amaliy foyda bo‘lishi shart. Bugungi shiddatli taraqqiyot davrida Imom Buxoriyning ilm va amal haqidagi qarashlari yangicha mazmun kasb etmoqda. Eng avvalo, bugungi dunyoda faqat bilish yetarli emas, bilimni iqtisodiyotga, ishlab chiqarishga va ijtimoiy farovonlikka aylantirish — davr talabi.

Hayot boshqaruvida ham rahbarlardan muammoga ilmiy yondashuv bilan qarashni taqozo etayotir. Zamonaviy dunyoda boshqaruv san’ati shunchaki intuitsiya yoki tajribaga tayanishdan chekinmoqda. Bugungi kun rahbaridan qat’iyatdan tashqari muammoning ichki mohiyatini ilmiy asosda anglash salohiyati talab etilmoqda. Zamonaviy boshqaruv nazariyasida “ilmiy-amaliy sintez” deb ataluvchi konsepsiya — rahbarning ilmiy tahlil va empirik (hayotiy) tajribani bir nuqtada birlashtira olishi samaradorlikning bosh mezoniga aylandi. Ilmiy

yondashuv muammoni dalillar bilan tekshirish va tizimli xulosa chiqarishni o‘rgatadi.

Ilmiy salohiyat va amaliy ishtirokning uyg‘unligi rahbarga tizimni “ichidan” ko‘rish imkonini beradi. Singapur bosh vaziri Li Kuan Yu aynan shu tamoyilni davlat boshqaruviga olib kirdi. U islohotlarni faqat nazariy manbalardan izlamadi, “joyida tekshirish” orqali amalga oshirdi. Natijada nazariya va hayot o‘rtasidagi masofa maksimal darajada qisqardi. Ilmiy darajaga ega rahbarlarda uzoq muddatli rejalashtirish va institutsional xotira kuchli rivojlangan bo‘ladi.

Tadqiqot bilan shug‘ullangan rahbarlar yangilikka ochiq va ijtimoiy adolat masalalarida o‘ta sezgir bo‘lishi bor gap. Iqtisodchi olim, Nobel mukofoti sovrindori Amartiya Sen tomonidan ilgari surilgan “inson kapitalini rivojlantirish” nazariyasi bugungi kunda ko‘plab rivojlangan davlatlarning boshqaruv strategiyasiga asos bo‘lmoqda. Uning fikricha, davlatning vazifasi shunchaki YAIMni oshirish emas, balki insonning qobiliyati va erkinliklarini kengaytirishdir.

Yurtimizdagi korxonalarni ilmiy-innovatsion rivojlantirish borasidagi siyosat va strategik tashabbuslar ham har tomonlama ilmiy asosda rivojlanishni ko‘zda tutadi. Zero, bugungi kunda global iqtisodiy maydonda faqat tabiiy resurslarga tayanganlar emas, balki intellektual salohiyat va innovatsiyalarni ishlab chiqarishga integratsiya qilgan mamlakatlar yetakchilik qila oladi. Prezidentimiz ma’ruzalarida qayta-qayta ta’kidlanadigan bosh g‘oya ham universitetlar va sanoat korxonalari o‘rtasidagi “ko‘prik”ni mustahkamlashdir. Korxona xalqaro bozorda raqobatbardosh bo‘lishi uchun u faqat arzon ishchi kuchi yoki xomashyoga emas, balki bilim va innovatsiyalarga tayanishi lozim. Bu jarayonda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va ilmni iqtisodiy qiymatga aylantirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu borada huquqiy poydevor mustahkamlanyapti. Strategik qarorlar va konsepsiyalarga urg‘u berilmoqda. Masalan, 2018-2021-yillar oralig‘ida sohani tubdan isloh qilishga qaratilgan bir qator muhim hujjatlar qabul qilingan bo‘lsa, keyingi bosqich — 2022-2026-yillarda asosiy urg‘u “raqamli iqtisodiyot” va “aqlli ishlab chiqarish” tizimiga o‘tishga qaratildi.

Bugungi kunda har bir yirik korxonada ilmiy tadqiqot bo‘limlari tashkil etilishi davlat siyosatining strategik talabiga aylandi. Boz ustiga “ilmiy ish — amaliy natija” tamoyiliga o‘tildi. Ilmiy jamiyat oldiga qat’iy talab qo‘yildi. Bu yondashuv qator ijobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Ilmiy loyihalarni grant asosida moliyalashtirishda ularning ishlab chiqarishga joriy etilish imkoniyati bosh mezon etib belgilandi. Korxonalarda innovatsion muhit yaratish uchun yosh olimlar va ilmiy xodimlarni bevosita sanoat obyektlariga jalb qilish tizimi yo‘lga qo‘yildi. OTMlar va korxonalar o‘rtasidagi hamkorlik shartnomalari talabalarni amaliyotga yo‘naltirish va ilmiy ishlanmalarni sinovdan o‘tkazish maydoniga aylandi. Islohotlar mevasi sifatida bugungi kunda bir necha muvaffaqiyatli loyihalarni ko‘rish mumkin. Eng avvalo, texnologik parklar barpo etildi. Raqamli texnologiyalar sohasidagi minglab startaplar va eksportga yo‘naltirilgan xizmatlar ekotizimi yaratildi. Qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalar, yangi seleksiya ishlari va agrotexnologik tadqiqotlar oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Sanoatda raqamlashtirish tizimi avtomatlashtirilgan boshqaruv va energiya-tejamkor tizimlar korxonalar xarajatlarini kamaytirib, samaradorlikni oshirmoqda.

“Ilm — innovatsiya — ishlab chiqarish — raqobatbardoshlik” zanjirli modeli shakllandi. Bunda ilm-fan shunchaki nazariy bilim emas, balki iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi va yangi ish o‘rinlari yaratuvchi asosiy drayver vazifasini bajaradi. Quvonarlisi, ilm-fanga munosabat tubdan o‘zgardi. Endi har bir korxona innovatsion, har bir tadqiqot amaliy va har bir olim jamiyat rivojiga hissa qo‘shuvchi kuch bo‘lishi, bu strategik zaruriyat va kelajak taraqqiyot kafolatiga aylanishi kerak.

Qo‘yilayotgan talablarni amalga oshirishda sotsiologiya fanining ahamiyati beqiyos. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mamlakatimizda sotsiologiya fani qayta tiklanishi va oliygohlarda malakali sotsiologlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilishi shunchaki akademik o‘zgarish emas. Bu boshqaruv tizimining ilmiy asosga o‘tayotganidan dalolat.

Sotsiologiyani faqat “diagnostika qiladigan fan” deb cheklash xatodir. Chunki u nafaqat jamiyatni tahlil qiladi, balki uni tushuntiradi, bashorat qiladi va hatto o‘zgartirish mexanizmlarini taklif etadi. Sotsiologiya jamiyatdagi muammolarni aniqlaydi (ishsizlik, tengsizlik, migratsiya). Sabablarini tahlil qilib, oqibatlarini baholaydi, yechimlar bo‘yicha ilmiy taklif beradi. Shu ma’noda, endi sotsiologik tadqiqotlar davlat siyosatining yo‘nalishlarini belgilab beruvchi asosiy omil bo‘lishi shart. Bu jarayondagi eng muhim burilish bir martalik so‘rovlardan doimiy monitoring tizimiga o‘tishdir. Endilikda jamiyatdagi kayfiyat, aholining davlatga ishonchi qayerda ortayotgani va qayerda zaiflashayotgani muntazam ravishda tahlil qilib boriladi. Qaysi qaror xalqqa manfaat keltiryapti, qaysisi esa adolatsiz deb qabul qilinyapti — bularning barchasi raqamlar va ilmiy xulosalar asosida Prezidentimizga taqdim etiladi. Davlatimiz rahbari topshirig‘iga binoan, hudud va tarmoqlar rahbarlari reytingini aniqlash bo‘yicha yangi metodologiya ishlab chiqiladi. Bu reyting ijtimoiy fikr va xalqning real roziligiga asoslanadi. Rahbarning faoliyatiga bahoni o‘sha hudud yoki tarmoqda yashayotgan va ishlayotgan odamlar beradi. Bu tizim rahbarlarni “pastga tushib”, odamlar muammosi bilan bevosita shug‘ullanishga majbur qiladigan kuchli mexanizm bo‘ladi.

Mas’uliyatni his qilmagan, sustkashlikka yo‘l qo‘ygan va o‘zgarishlar qilishni istamagan rahbarlar bo‘yicha ochiq, xolis va tanqidiy axborotlar shakllantirib boriladi. Bu “Listening State” — “Quloq soladigan davlat” konsepsiyasining eng yuqori bosqichi bo‘lib, unda xalqning ovozi qaror qabul qiluvchilar uchun eng oliy majburiyat hisoblanadi.

Sotsiologik tadqiqotlarning davlat boshqaruviga izchil joriy etilishi ikkita strategik maqsadga xizmat qiladi.

Birinchidan, qarorlar sifati oshadi. Har bir farmon yoki qaror aholi ehtiyojlaridan kelib chiqib qabul qilinadi.

Ikkinchidan, mas’uliyat kuchayadi. Rahbarlar o‘z faoliyatining oynasi xalqning fikri ekanini his etib ishlay boshlaydi. Shunday qilib, yangi tizim O‘zbekistonda islohotlarning samaradorligini oshirishda nafaqat ilmiy asos, balki kuchli ijtimoiy nazorat vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Xalq roziligi endilikda faqat ma’naviy maqsad, balki aniq o‘lchanadigan va hisob beriladigan davlat standartidir. Zamonaviy boshqaruv tizimida har qanday islohot yoki ijtimoiy loyiha muvaffaqiyati uning nechog‘liq ilmiy asoslangani va jamiyatdagi real holatni aks ettirganiga bog‘liq.

Sotsiologik tadqiqot qarori muayyan ijtimoiy muammoni ilmiy asosda o‘rganish, tahlil qilish va amaliy yechimlar ishlab chiqish maqsadida qabul qilinadigan tashkiliy-metodologik hujjatdir. U tadqiqotning muammoni qo‘yishdan tortib, natijalarni hayotga joriy etishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarini aniq belgilab beradi. Sotsiologik tadqiqot qarorining eng muhim bosqichi kutilgan natijalarning amaliyotga integratsiyasidir. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan tavsiyalar davlat organlariga, korxonalarga yoki qonunchilik dasturlariga kiritiladi. Mazkur yondashuv rahbarga muammoni “kitobdan o‘qib” emas, balki xalqning ichiga kirib, raqamlar va jonli muloqotlar asosida “ichidan” tushunish imkonini beradi. Bu esa ijtimoiy siyosat samaradorligini keskin oshiradi. Yangi O‘zbekistonning boshqaruv tizimida bunday ilmiy asoslangan qarorlar ko‘payishi jamiyatdagi har bir ijtimoiy muammoga eng maqbul va adolatli yechim topishning kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Kamolot pillapoyasi

HAR BIR BITIRUVCHI — YURT TAYANCHI

Bahorning oxirgi oyi ham yarimlab qoldi. Har yilgidek, maktab bitiruvchilari so‘nggi qo‘ng‘iroq taraddudiga tushgan. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi mutasaddilariga ko‘ra, bu yil respublikamizdagi 10 ming 193 ta umumta’lim maktabini 1 million 94 ming 330 o‘quvchi tamomlaydi. Ularning qariyb 622 mingi 9-sinf, 500 mingga yaqini 11-sinf bitiruvchilari.

Joriy yilda maktab o‘quvchilari mintaqaviy va xalqaro fan olimpiadalarida 24 ta oltin, 46 ta kumush, 57 ta bronza medalni qo‘lga kiritdi. 2 o‘quvchi Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. Til bilish sertifikatiga ega maktab o‘quvchilari soni 40 ming 566 nafarni tashkil etib, 2021-yildagiga (10 ming 960 nafar) nisbatan 3,7 barobar o‘sish kuzatildi.

Bu yilgi 9-sinf bitiruvchilarining

16 ming 481 nafari a’lo darajali shahodatnomaga, 11-sinf bitiruvchilarining 12 mingga yaqini kumush va oltin medalga ega bo‘lishi kutilyapti.

Oltin va kumush medal ta’limning keyingi bosqichida imtiyozlar beradimi?

To‘g‘ri, maktabni oltin yoki kumush medal bilan tamomlaganlarga hech qanday imtiyoz berilmaydi. Medallar bilan taqdirlashdan asosiy maqsad — o‘quvchilarning ta’lim olishga qiziqishini yanada oshirish, ular o‘rtasida sog‘lom raqobatni shakllantirish va iqtidorlilar bilimini rag‘batlantirish. Zero, 9-sinfni bitirganlik to‘g‘risidagi a’lo darajali shahodatnomasi bor, 10- va 11-sinflarda barcha fanlar bo‘yicha choraklik, yillik va

yakuniy nazorat baholari a’lo, namunali xulq-atvorli va jamoat ishlarida faollik ko‘rsatgan bitiruvchilargina bunga sazovor bo‘ladi.

“So‘nggi qo‘ng‘iroq” tadbirlari qanday tashkil etiladi?

Mas’ullarning aytishicha, bu yilgi “So‘nggi qo‘ng‘iroq” tadbirlari “Ma’rifatli avlod — Uchinchi Renessans poydevori!” shiori ostida 25-may kuni o‘tkaziladi. Ta’limning uzviyligini ta’minlash maqsadida an’anaga ko‘ra barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Xayr bog‘cha — salom maktab” tadbiri uyushtiriladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari “So‘nggi qo‘ng‘iroq” tadbirlarini yuqori saviyada o‘tkazish va jamoat xavfsizligini ta’minlashga shaxsan mas’ul hisoblanadi.

“So‘nggi qo‘ng‘iroq” tadbirlarini yuqori saviyada o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar va namunaviy ssenariy har bir maktabga yetkaziladi. Tadbirlarni xavfsizlik choralarini ko‘rgan holda maktab hovlisidagi soya-salqin va ochiq maydonlarda tashkil etish talab etiladi. O‘quvchilar xavfsizligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash asosiy vazifa sanaladi. Tadbirlardan so‘ng o‘quvchilar guruh-guruh bo‘lib xiyobonlar, istirohat bog‘lari, cho‘milish havzalariga borganda, turli ko‘ngilsiz holatlar kelib chiqishining oldini olish uchun kuchaytirilgan tarkibda jamoat xavfsizligini ta’minlash choralari ko‘riladi. Barcha maktablarga jamoat tartibi va xavfsizlikni ta’minlash uchun xodimlar biriktiriladi.

Ayniqsa, yo‘l harakati xavfsizligi masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. Serqatnov ko‘chalarga yaqin joylashgan maktablar atrofida yo‘l harakati xavfsizligi navbatchiligi tashkil etiladi. Zero, so‘nggi yillarda bitiruv kunlari o‘quvchilar ishtirokida yo‘l-transport hodisalari ko‘p uchramoqda.

Har doimgidek anhorlar, kanallar, suv havzalarida bolalarning cho‘milishi nazoratga olinadi. Afsuski, bu yerlarda ham bitiruvchilar bilan bog‘liq noxush holatlar har yili uchrab turibdi. Shulardan kelib chiqqan holda barcha mas’ullar hozirdanoq o‘z vazifalari doirasida zarur chora-tadbirlarni ko‘ryapti.

Yakuniy imtihonlar bu yil ham odatdagidek o‘tadimi?

9-sinf o‘quvchilari uchun ona tili va adabiyot (ta’lim o‘zbek tilidagi sinflar uchun), davlat tili (ta’lim tili o‘zbek tili bo‘lmagan sinflar uchun), matematika, O‘zbekiston tarixi (yozma va og‘zaki shaklda), jismoniy tarbiya (amaliy shaklda) fanlari majburiy bo‘lgan fanlar sifatida belgilandi.

11-sinf o‘quvchilari uchun majburiy fanlar esa ona tili va adabiyot (ta’lim o‘zbek tilidagi sinflar uchun), davlat tili (ta’lim tili o‘zbek tili bo‘lmagan sinflar uchun), matematika (asosiy), matematika (chuqurlashtirilgan), O‘zbekiston tarixi fanidir.

11-sinf o‘quvchilari uchun tanlov fanlari (barcha 11-sinf bitiruvchilari topshirishi majburiy) ona tili va adabiyot (qoraqalpoq tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti, qozoq tili va adabiyoti, qirg‘iz tili va adabiyoti, tojik tili va adabiyoti, turkman tili va adabiyoti), fizika, kimyo, biologiya, geografiya, davlat va huquq asoslari fanlari (yozma shaklda), chet tili fani (yozma va og‘zaki shaklda) bo‘ladi.

Maktablarda yakuniy davlat attestatsiya imtihonlari 16-iyunga qadar yakunlanadi.

Shahodatnomalarni berish tartibi qanday?

Maktab ta’limi sohasidagi jarayonlarni raqamlashtirish, ortiqcha byurokratik to‘siqlarning oldini olish, shuningdek, o‘quvchilarga yanada qulaylik yaratish maqsadida 2022-2023-o‘quv yilidan boshlab maktab bitiruvchilariga elektron shahodatnoma berish tartibi joriy etilgan. Shunga ko‘ra, maktab bitiruvchilari elektron shahodatnomalarini Yagona interaktiv davlat xizmatlari (my.gov.uz) portali va e-shahodatnoma.uz axborot tizimidan bepul yuklab olishi mumkin.

11-sinf maktab bitiruvchilarining shahodatnoma ma’lumotlari Bilim va malakalarni baholash agentligining oliy ta’lim muassasalariga qabul bo‘yicha elektron platformasiga integratsiya qilingan. Bu oliy ta’lim muassasalariga elektron hujjat topshirish jarayonida bitiruvchining shahodatnoma ma’lumotlari avtomatik tarzda taqdim etiladi, degani. Bitiruvchilar shahodatnomalarini shaxsan taqdim etishlariga ehtiyoj yo‘q.

Bundan tashqari, endilikda shahodatnomasi yo‘qolganda, bitiruvchilar dublikat olishi shart emas, elektron tizimdan bepul qayta yuklab olish mumkin. Bu ortiqcha ovoragarchilik, ham vaqt, ham naqdni yo‘qotishga barham berishi bilan qimmatli. Ta’lim tizimini raqamlashtirish takomillashib borar ekan, kelajakda ko‘plab qulayliklar yaratiladi. Farzandlarimizdan esa shunga yarasha o‘qib-o‘rganish, yetuk inson bo‘lish talab etiladi.

Qalblari ayni paytda orzularga to‘la, hayajon bilan ta’limning yangi bosqichi, katta hayot ostonasida turgan o‘g‘il-qizlarimiz — bizning ertamiz. Shuning uchun ularning reja va maqsadlariga befarq qaray olmaymiz. O‘ylaymizki, maktablardan uchirma bo‘layotgan dilbandlarimiz yangi ta’lim dargohlaridan ham munosib o‘rin topib, jamiyat uchun kerakli kadrlarga aylanadi.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Shu ko‘chalarda ham o‘zgarish, yangilanish bo‘larmikan?” deya o‘yladim bundan bir necha yil oldin Toshkent — Farg‘ona katta magistralidan borarkanman. Ho‘qandi latif qiyofasidagi an’anaviylikka uyg‘un zamonaviy o‘zgarishlardan ko‘zim quvnardi.

YANGI O‘ZBEKISTON
yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Taassurot

DARYONI DARYODIL BILAR

Muhtarama ULUG‘OVA,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

Yo‘llarning oq-qora xotirasi

Farg‘ona vodiysini yurtimizning boshqa hududlari bilan bog‘laydigan Qamchiq dovonidan necha bor o‘tganimning sanog‘i yo‘q.

Qirq yillar oldin birinchi marta qadrdonimning “Volga” mashinasida dovon oshib, Marg‘ilonga borganimdagi hayajon va qo‘rquv tafti haligacha bosilmaganday. O‘shanda asfalt degan narsa tushiga ham kirmagan, shag‘al emas, yirik-yirik toshlar qoplab yotgan yo‘lning bir tomoni tog‘larga tutash, ikkinchi tomoni esa tikka jarlik edi... Ikkita mashina ro‘baro‘ kelib qolsa, jar tomondagi mashinada o‘tirganlarning yuragini vahima bosardi: yo‘l tor, muyulishlari ko‘p, notekis va olis yo‘lning biror bo‘lagida ham jardan himoyalaydigan to‘siq-vosita yo‘q... Eson-omon manzilga yetib olganimizga beadad shukrona aytib, dovon yo‘lini orzulamay qo‘ygandim.

Keyinchalik 9-10 soatlab yo‘l yurilsa-da, ota yurtimga Qozog‘iston va Tojikiston hududidan aylanib o‘tadigan avtobusda borib keladigan bo‘ldim. Qardoshlar bilan yo‘llarimiz, qishloqlarimiz tutash, hayot tarzimiz o‘xshash bo‘lsa-da, baribir qo‘shni-qondoshlarning tili va dili bilan yuzlashib, tutgan rizqu nasibalaridan totib o‘tishning zavqi boshqacha edi. Tug‘ishganday bo‘lib ketgan hamsoya bilan birrov uchrashib, hol-ahvol so‘rashishdan ko‘ngil qanchalar o‘sadi-yu, jigaringday xalqning yurtiga qo‘nib o‘tishning maqomi qanchalar ulug‘!..

Peshindan keyin poytaxtdan yo‘lga chiqqan og‘irkarvon avtobus Beshariq tumaniga kirib borganda allaqachon qorong‘i tushgan bo‘lardi. Bu yog‘i O‘zbekiston (o‘sha paytdagi nomi), Bag‘dod, Oltiariq tumanlaridan o‘tib, Marg‘ilonga eltadigan yo‘l masofasi ikki yuz kilometr atrofida edi. Yo‘l olis, ikki tomonidagi manzara esa qora qalam bilan chizilgan yaxlit rasmga o‘xshardi: saf tortgan tutlar qorayib ko‘rinar, yulduzlarning g‘ira-shira nurida nigoh yetgan yerlarning boshidan oxirigacha paxtazorlar yastanib, unda-munda simchiroqlar yoki hovlilardagi chiroqlar miltillardi... Marg‘ilondan Toshkentga qaytish kunduzga to‘g‘ri kelgani uchun bu ko‘rinishlarga rang kirardi: faslga qarab tutlar va dalalar yashil, sariq, jigarrang tus olardi. Katta yo‘llarga tutash paxtazorlarning u yer-bu yerida qisinib-qimtinganday pastak, tor devorlar bilan o‘ralgan hovlilar ko‘zga tashlanardi. Paxta ochilgan mavsumda oppoq tusga kiruvchi bu kengliklar hosil yig‘ib olinganidan keyin yana bahorgacha fayz-baraka va to‘kinlikka intizor bo‘lardi. Darvoqe, qay bir suv chiqmas, chekka joylarda unib-o‘sgan yovvoyi jiydalarni hisobga olmaganda, yo‘l-yo‘lakay nafaqat dalalarda, balki hovlilarda ham mevali daraxtlar uchrashi amrimahol edi. Sobiq tuzum davrida hovlilardagi mevali daraxtlargacha (tutdan tashqari, chunki tut bargi ipak qurtiga ozuqa edi-da) soliq solinganini (hovlimizdagi o‘rik daraxti sal katta bo‘lganda, “hukumat endi soliq soladi”, deb kesib tashlashgani esimda) aytsam, fikrim tushunarli bo‘lsa kerak.

Taqdirlarni yoritgan chiroqlar

Ko‘p qatnayverganingdan keyin ko‘chalar, daraxtu ariqlar, hatto yo‘l chetiga kimdir o‘rnatgan yog‘och g‘o‘layu qo‘lbola o‘rindiqlargacha yod bo‘lib ketarkan.

1991-yil 1-sentabr — mustaqillik saodati O‘zbekiston yilnomasida yangi sahifalar ochgan kundan boshlab, paxtazorlarni qisqartirish

hisobidan odamlarga uy-joy qurish uchun yerlar berilishi xalqchil voqea va ijtimoiy adolat yo‘lidagi zalvorli qadam bo‘ldi. Xalq shirin tushdan uyg‘onib ketganu bu tush emas, haqiqat ekanini ko‘rib, ko‘zi, orzu-havasi, g‘ayrati chaqnab ketgandek edi. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab paxtazorlar iskanjasida bo‘lgan, paxtazorlarga qo‘shilib boshidan zaharli dorilar yog‘dirilgan, dorilangan dalalardan sizib chiqqan suvga vaqti kelsa yuzini yuvgan qishloq ahlining kunu tunlari g‘ayratga, zavqli mehnatga va bayramona kayfiyatga qorishib ketdi: Toshkent — Marg‘ilon avtobusi qorong‘i tushganda Beshariq tumaniga kirib borgach, endi yo‘llarni kuzatib zerikmasdi odam: vaqt allamahal bo‘lishiga qaramay, ikki tomonda chiroqlar yonardi; bir-biriga tutash yangi qurilayotgan hovlilarda kimdir devor tiklar, kimdir imorat qurar, yana kimdir tom yopardi. Hademay, ha, juda tez fursatda ko‘rkam imoratlar, tunukayu shiferli tomlar, yaraqlagan derazalaru chiroyli pardalar, yangi ekilgan gulu daraxtlar orzumand va havasmand qalblarning o‘ziga xos tilmochiga aylandi.

Keyinchalik... qishlog‘u shaharlar orasida gektarlarga cho‘zilgan o‘rikzorlar, olmazorlar, shaftolizorlar, behizoru olxo‘rizorlar bo‘y cho‘zdi, gullab mevaga kirdi. Qovun-tarvuz polizlari, loviyazorlar, sabzavot paykallari barpo etildi... Davlatmandlar ko‘paysa, davlat boyiydi deydi. Xalqning sog‘lom bo‘lishi esa, birinchi navbatda, dasturxonida darmondorilarga boy sabzavotu meva-chevalarning yetarli va to‘kisligiga bog‘liq.

Xalqimizda “og‘irkarvon” degan so‘z bor. Bu tashbeh yetti o‘lchab bir kesadigan, qadamini chuqur mulohaza bilan bosadigan, xulosa chiqarishga shoshilmaydiganlarga... ba’zan esa yangilikka qo‘l urishga ikkilanib turadiganlarga nisbatan ham ishlatiladi. Shu — keyingi toifa vakillari hayotning hamma sohasida uchraydi. Demoqchimizki, mustaqillik yillarining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maishiy sohalardagi yangilovchi islohotlari natijasi ba’zi hududlarda yillar sayin yaqqol ko‘zga tashlangan bo‘lsa, ayrim joylarda qadamini zo‘rg‘a sudrab bosdi.

...Ota-onamning tarixiy ildizi Farg‘ona viloyati Qo‘shtepa tumanining Marg‘ilon shahriga tutash Oyimcha qishlog‘i bilan bog‘liq. Jigarlarning zurriyodlari shu yerda yashaydi. Qolaversa, har gal ona shahrimga shu qishloqdan o‘tgan katta yo‘l orqali kirib boraman.

“Shu ko‘chalarda ham o‘zgarish, yangilanish bo‘larmikan?” deya o‘yladim bundan bir necha yil oldin Toshkent — Farg‘ona katta magistralidan borarkanman. Ho‘qandi latif qiyofasidagi an’anaviylikka uyg‘un zamonaviy o‘zgarishlardan ko‘zim quvnardi. Tadbirkorlikning, yer ilmining hadisini olgan oltiariqliklarning hovlilaridan ko‘chalarigacha birdek taralgan va qaralgan uzum so‘ritoklariyu tomorqalariga, shuningdek, ularning daromadi ramzi bo‘lgan ko‘rkam hovli-joylariga tasannolar aytib bordim.

Bozorni bir aylanib...

Bu yil yana bahorga yetkazganiga shukrona aytib, diydoru savob talabida tong payti yo‘lga chiqdim. Qamchiq dovonining sakkiztalab mashina birdek harakatlana oladigan magistralini ko‘rib ulg‘aygan farzandlarimizga bu yo‘llarning yarim asr, boringki, o‘ttiz yil oldingi holati haqidagi gaplarimiz ertakdek tuyuladi. Dovon osha vodiyga qalban yelib borarkanman, yana yo‘lning ikki tomonini, katta yo‘lga irmoqdek qo‘shilgan ko‘chalargacha sinchiklab kuzataman: tog‘ yonbag‘irlarida ham palapartish emas, rasamadi bilan ekilgan daraxtlar qad rostlagan, yo‘llar chetidagi qator teraklar bo‘y-basti saralangan navqiron askarlar safini eslatadi. Avvalgi yillardagi kabi yo‘lovchilar uloqtirib ketadigan har xil suv va yegulikdan bo‘shagan idishlar, qog‘ozu yelim xaltachalar deyarli ko‘rinmaydi. Aholi yashaydigan qishloqlar va ularni bog‘laydigan olis-olis ko‘chalar, kengliklar hamda dalalardagi sarishtalik, ozodalik “yarq” etib ko‘zga tashlanadi. Salobati nigohga sig‘maydigan o‘rikzorlar va olmazorlar ulkan guldastaga o‘xshaydi. Toki Marg‘ilonga yetguncha yo‘llarning ilgarigi quroq manzarasi tamoman o‘zgarganini ko‘rasiz: qadim yo‘llardagi qadrdon qishloqlar ketma-ket peshvoz chiqadi, hammasida obodlik, sarishtalik, devoru imoratlari tekis g‘ishtin hovlilar qad rostlagan... “Yangi avlod”, “Kelajak” deb nomlangan markazlar, novvoyxonalar oldidan shukrona keltirib o‘tamiz.

Biz borayotgan markaziy ko‘chaning ikki tomonida katta hududni egallagan “Qumtepa” bozoridagi manzarani, to‘kinlikni, odamlarning ko‘tarinki kayfiyatini va gurullab turgan savdo-sotiqni bir ko‘rsangiz edi! Non rastalarida momolarimizdan meros jizzali, pomidorqoqiyu piyozli, sariyog‘li, yong‘og‘u mayizli non-patirlargacha bor. Ho‘l mevalar rastalarida esa ayni to‘kin kuz mavsumining tarovati ufurib turadi. Peshtaxtalarga to‘lib-toshgan pistayu bodom, turshagu mayizlar, yong‘og‘u jiydalar turining sanog‘iga yetolmaysiz (hamyoningiz ko‘targanini tanlayverasiz). Ular qatorida olchaqoqilargacha topiladi. Asal va sariyog‘ning tozasini olmoqchi bo‘lsangiz, ana, rang-ro‘yi tiniq, soddayu samimiy mirishkorlarning rastasiga boring! Ko‘k-rezavorlar bozori ko‘klamning mo‘jaz hovlisiga o‘xshaydi. Bundan o‘n yillar oldin oilasiga bir tandirgina ko‘k somsa tayyorlash uchun atrofdagi dalalarni kezib chiqadigan qishloq bekalari bugun tomorqasining chekkasida jag‘jag‘, ismaloq, otquloq ekib biznes qilyapti. Bu ekologik toza mahsulotdan sotuvchi ham, oluvchi ham birdek manfaatdor va minnatdor. Sut, qatiq, sariyog‘ rastalaridagi mahsulotlarni ko‘rib o‘tarkanman, beixtiyor bundan qirq yil muqaddam bir yashar qizimga bo‘tqa pishirib berish uchun tabiiy sut izlab, Toshkentning markazidan Qibrayga qatnaganlarim esimga tushib ketdi... Yaratganga shukr, u kunlar o‘tib ketdi! Bari xotiralarda qoldi! Faqat endi bu to‘kinlikning qadriga yetishimiz, isrofgar va noshukr bo‘lmasligimiz shart!

Eh-he, bozorning eng gurullagan joyi bu yoqda ekan-ku: ko‘chatlar, nihollar selkillab turibdi — bahorda bu hammamizga tanish manzara. Ammo gul bozori har doimgidan ham kengayib ketibdi. Zotan, yo‘l-yo‘lakay bir necha gulko‘chat va tuvakdagi gullar sotuvchilarining qatoridan o‘tgan edik. Ilgari o‘zimizda bo‘lmagan gul turlari haqida so‘ragandim, sotuvchi: “Yo‘q, chet eldan olib kelganimiz yo‘q. O‘zimiz o‘stirib ko‘paytiryapmiz”, deb javob berdi. Xaridorlar — shu atrofdagi xonadonlarning boshliqlari, bekalari. Ularning go‘zallikka, gullarga havasi, mehru ixlosi va intilishi negadir yodimga asalarilarni soldi.

Inson faqat qorin uchun yashamaydi. Ammo xalqimiz sodda va lo‘nda qilib aytib qo‘yibdi: “Bo‘sh qop tik turmaydi”. Juda kichkinaligimizda otajonimning qora eski charm sumkasini ne’matlarga to‘ldirib darvozadan xursand kirib kelishini va nimalarnidir arzon olganidan mamnun bo‘lib gapirganini... onam esa tikkan do‘ppilarini bozordagi soliqchilardan yashirinib yurib sotganini shukrona bilan so‘zlashini eshitib, bozorning kundalik hayotimizdagi ahamiyatini anglab borganmiz.

Odatda har qanday savdo joyida sotuvchiga nisbatan xaridor ko‘p bo‘ladi. Lekin bugun “Qumtepa” bozorini aylanib kuzatarkanman, sotuvchi ham, oluvchi ham birdek ko‘pligini ko‘rdim. Demak, “Ekaman, undirib yetishtiraman, xalq dasturxoniyu ro‘zg‘orini to‘kin qilib, elu yurtni boyitaman, halol daromad topaman”, deganlar oz emas. Ularning safi o‘tgan yildagiga qaraganda ancha-muncha kengaygan. Eng muhimi, bu xayrli niyatni amalga oshirish uchun sharoit hamda imkoniyat yetarli. Iqtisodiyotda talabga qarab taklif yaratiladi, degan qat’iy qonuniyat barqaror. Bozorda savdo-sotiqning gurullab yotgani ham aynan mana shu me’yorning mutanosibligi belgisidir.

VATANNI SEVISH FAQAT TUYG‘U EMAS, AMALIY HARAKAT HAMDIR

Keksalar o‘giti

Vatanga muhabbat shunchaki tuyg‘u emas, inson qalbidagi g‘urur, daxldorlik va o‘zini kengroq ma’noga ega bir butunning ajralmas qismi sifatida anglashdir.
Zero, Vatan — xotiralar maskani. Bu zaminda ilk qadamlarimiz, birinchi do‘stlarimiz, ilk ustozlarimiz va hayot haqidagi dastlabki tushunchalarimiz mujassam. Inson o‘z yurtiga nisbatan eng iliq va samimiy tuyg‘ularni aynan shu xotiralar orqali his etadi.

Albatta, har bir insonning hayotda oldiga qo‘ygan maqsadlari bo‘ladi. Biroq eng ulug‘ va muqaddas maqsad tug‘ilib o‘sgan yurtiga munosib hissa qo‘shishdir. Bu yo‘lda har bir fuqaro o‘z qobiliyati va iste’dodini safarbar etishi, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallashga intilishi lozim. Vatanga muhabbat tuyg‘usi bolalikdan shakllanadi.

Bu borada maktab ta’limi alohida ahamiyatga ega. Ta’lim dargohlarida o‘quvchilar nafaqat fanlarni o‘zlashtiradi, balki kitoblar orqali yurtining boy tarixi, buguni, madaniyati, ma’rifati, millatlararo do‘stlik va hamkorlik an’analari haqida keng tasavvurga ega bo‘ladi.

Shu bilan birga, bolalarning maktabi va yashayotgan hududiga munosabati ham izchil shakllanib, tobora mustahkamlanib boradi. Ular atrofidagilar bilan muloqot qilishni, kattalarga hurmat bilan qarashni o‘rganadi.

Asta-sekin hayotiy qarashlari shakllanib, o‘zlari uchun ibrat bo‘ladigan qahramonlarni tanlay boshlaydi. Eng muhimi, ularning qalbida kelajakda o‘z mamlakatining faxri, haqiqiy qahramoni bo‘lish orzusi uyg‘onadi.

Atrof-olamni anglamasdan turib, Vatan tuyg‘usini chuqur his etish mushkul. Bolalikdagi eng oddiy, hatto kichik bir xotira ham inson qalbida butun umrga o‘chmas iz qoldiradi. Vatan tushunchasi va uning timsoli aynan shu ruhiy xotiralar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, kishi uni yillar o‘tgan sari yanada teran anglaydi.

Nazarimda, har bir inson o‘zi yashayotgan hudud, mahalla va jamiyat oldidagi mas’uliyatni doimo his etishi lozim. Kelajak avlodni turli yot illatlardan asrash, ularni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish, ogohlik va hushyorlikka o‘rgatish — bugunning eng dolzarb vazifalaridan biri.

Mashhur mutafakkir Imom G‘azzoliy bunday degan:

“Vatanning ham haqlari bo‘ladi. Ularning birinchisi shu Vatanda tinch-xotirjam, shukrona keltirib yashash haqqidir. Shuningdek, Vatandan ketganda uni sog‘inish, Vatan kamsitilganda g‘azablanish, Vatanga hujum qilinganda uni himoya qilish ham Vatanning shu yurtda tug‘ilib o‘sganlar zimmasidagi haqqidir...”.

Bu fikrlar zamirida yurtga muhabbat va sadoqatning chuqur ma’nosi mujassam. Aynan shu tuyg‘u tufayli inson uyini, mahallasini va mamlakatini sevadi, obod qiladi, sha’nini

ulug‘laydi va himoya qiladi. Yurt sharafini yuksaltirishning turli yo‘llari bor. Kimdir uni moddiy jihatdan obod etsa, kimdir ma’naviy yuksalishiga hissa qo‘shadi.

Biroq eng asosiy shart shuki, inson qaysi sohada faoliyat yuritmasin, o‘z ishini xolislik va samimiyat bilan bajarishi zarur. Ana shundagina bu mehnat haqiqiy ma’noda ona Vatan ravnaqi va nufuzini yuksaltirishga qaratilgan ezgu xizmatga aylanadi.

Vatan millatga daxldorlikni anglash, yaqin insonlarga ehtiyojni his etish hamda qalbdan kechiriladigan tuyg‘ular majmuasidir. Bu hissiyotlar inson ongida chuqur ildiz otib, vaqt o‘tishi bilan chinakam vatanparvarlik tuyg‘usiga aylanib boradi.

Yurtga daxldorlik nima degani? Bu har qanday vaziyatda yurtining sha’ni, qadr-qimmati va ozodligini himoya qilishga tayyor turishdir. Zero, hech bir inson erki va mustaqilligining xavf ostida qolishini istamaydi.

Behbudiy, Avloniy, Munavvarqori, Fitrat kabi ma’rifatparvarlarning ijodi, jasorati va hayoti bugungi avlod uchun ham yuksak namuna. Shubhasiz, bunday ulug‘larning hayot yo‘li har birimiz uchun mardlik, sadoqat va Vatanga muhabbat maktabi bo‘lib xizmat qiladi.

Qadriyatlarimizni e’zozlash, ona tilimizni sof holida asrash, bir-birimizga hurmat va mehr bilan munosabatda bo‘lish, shuningdek, insof va diyonat kabi fazilatlarni hayot tarzimizga aylantirish — azaliy urf-odatlarimizning yorqin ifodasi.

Namuna orqali tarbiya berish — eng samarali yo‘l. Shu bois, har birimiz atrofdagilarni ham ezgu amallarga ilhomlantira olishimiz lozim. Ta’lim esa Vatanni sevishni o‘rgatishning eng noyob va ta’sirchan vositalaridan biri bo‘lib qolaveradi.

Men shu yurtning nuroniylaridan biri sifatida yoshlarga bunday degim keladi: aziz nabiralarim, mamlakatimiz tarixini aks ettiruvchi kitoblarni ko‘proq o‘qing! Yurtimizning boy tarixi, ulug‘ ajdodlarimiz hayoti, jasorati va yutuqlari haqida chuqur bilimga ega bo‘ling. Muzeylarga boring, tarixiy qadamjolarni ziyorat qiling, sayohatlar orqali Vatanni yaqindan kashf eting.

Shunda yurtimizning mashaqqatli sinovlari va buyuk yutuqlarini teran anglab, yanada ko‘p qadrlaysiz hamda ko‘z qorachig‘idek asrashga intilasiz. Chunki tarixiy meros va tabiiy boyliklarni anglash inson qalbida mas’uliyat, burch va faxr tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Vatanga muhabbatning yana bir muhim ko‘rinishi mahalliy biznes va mahsulotlarni qo‘llab-quvvatlashdir. Bu orqali mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishga hissa qo‘shasiz, yangi ish o‘rinlari ochilishiga sababchi bo‘lasiz. Bu kichik qadamdek tuyulsa-da, aslida, yurt ravnaqiga xizmat qiluvchi muhim omildir.

Shuningdek, jamoat ishlarida faol ishtirok etish, ko‘ngillilik faoliyatiga qo‘shilish ham fuqarolik burchining yorqin ko‘rinishi. Ko‘chalarni obod qilish, muhtojlarga yordam berish, yetim bolalar va nogironlarga ko‘maklashish, xayriya tadbirlarida ishtirok etish — bularning barchasi Vatanga muhabbatning amaliy ifodasi.

Atrof-muhitni asrash ham vatanparvarlikning ajralmas qismi. Tabiatni muhofaza qilish, havoni toza saqlash va resurslardan oqilona foydalanish orqali kelajak avlodga obod hamda go‘zal yurt qoldiramiz.

Mardiqul SIDDIQOV,
faxriy jurnalist

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-546.
30570 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Jonibek Alijonov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05